

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

OLMON TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

**5141400 xorijiy tillar va adabiyoti (olmon tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun yozilgan
402^a gurux talabasi Madina Isroilovaning**

**ZAMONAVIY LUG'ATSHUNOSLIK TAXLILI
(ROMAN - GERMAN TILLARI ASOSIDA TUZILGAN BIR VA KO'P
TILLI LUG'ATLAR TAHLILI ASOSIDA) Mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ish rahbari: Prof. UMARXO'JAYEV M.E.

ANDIJON - 2013 yil

Mundarija

I. Kirish	4- 12
1.1. Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi	
1.2. Bitiruv malakaviy ishining ishlanganlik darajasi.	
1.3. Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari	
1.4. Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati	
1.5. Bitiruv malakaviy ishining obyekti va predmeti	
1.6. Bitiruv malakaviy ishining tadqiqot metodi	
1.7. Bitiruv malakaviy ishining metadalogik asosi	
1.8. Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi	
1.9. Bitiruv malakaviy ishining amaliyotga tadbiiq etilganligi	
1.10. Bitiruv malakaviy ishining strukturasi	
II.Asosiy qism.....	12 -49
1. Leksikografiya - lug'atshunoslikni o'rganuvchi fan.....	12-24
1.1. G'arb lug'atshunosligi	
1.2. Sharq lug'atshunosligi	
1.2.1. Alisher Navoiyning "Muhokamat ul- lug'atayn" asari.	
1.2.2. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asari.	
2. Lug'at turlari va ularning tuzilishi.....	24-49
2.1.Qomusiy lug'atlar	
2.2.Lingvistik lug'atlar	
2.3.Terminologik lug'atlar	
2.4.Sinonim lug'atlar	
2.5Frazeologik lug'atlar	
III. Xulosa	50-53
VI. Foydalanilgan adabiyoti.....	54-56

ZAMONAVIY LUG'ATSHUNOSLIK TAXLILI

(ROMAN - GERMAN TILLARI ASOSIDA TUZILGAN BIR VA KO'P TILLI

LUG'ATLAR TAHLILI ASOSIDA)

R E J A

I. Kirish

- 1.1.Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi
- 1.2.Bitiruv malakaviy ishining ishlanganlik darajasi.
- 1.3.Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari
- 1.4.Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati
- 1.5. Bitiruv malakaviy ishining obyekti va predmeti
- 1.6.Bitiruv malakaviy ishining tadqiqot metodi
- 1.7.Bitiruv malakaviy ishining metadalogik asosi
- 1.8.Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi
- 1.9. Bitiruv malakaviy ishining amaliyotga tadbiiq etilganligi
- 1.10.Bitiruv malakaviy ishining strukturasi

II. Asosiy qism.

1.Leksikografiya - lug'atshunoslikni o'rganuvchi fan

- 1.1. G'arb lug'atshunosligi
- 1.2. Sharq lug'atshunosligi
 - 1.2.1. Alisher Navoiyning "Muhokamat ul- lug'atayn" asari.
 - 1.2.2. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asari.

2. Lug'at turlari va ularning tuzilishi

- 2.1.Lingvistik lug'atlar va ularning turlari
- 2.2.Izohli lug'atlar
- 2.3.Imlo lug'atlar
- 2.4.Terminologik lug'atlar
- 2.5.Sinonim lug'atlar
- 2.6.Frazeologik lug'atlar

III. Xulosa

VI. Foydalanilgan adabiyotlar

K I R I S H

Mavzuning dolzarbligi. Biz milliy ma'naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o'z oldimizga asosiy vazifa qilib qo'yar ekanmiz, bugungi kunda ma'naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omillar va me'zonlarni chuqur taxlil qilib, ularning bu borada qanday o'rin tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan muhim hayotiy omillardan biri- bu ta'lim tarbiya tizimidir.

Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilm-u marifat, ta'lim tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan.

Albatta, ta'lim- tarbiya ong mahsuli lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan ya'ni xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta'lim tarbiya tizimining va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi.

Shu bois bu sohada yuzaki, rasmiy yondashuvlarga, puxta o'ylanmagan ishlarga mutlaqo yo'l qo'yib qo'yib bo'lmaydi. Maktab, ta'lim-tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo'lishi asosiy qonunimizda belgilab qo'yilgan.

Shu bilan birga, bu keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va qo'llab quvvatlashini talab qiladigan umummilliy masaladir.

Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq.

Buning uchun har qaysi ota- ona, ustoz va murabbiy har bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish - ta'tim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishi talab etadi¹.

Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi.

Bu haqda fikr yuritgan, men Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot- yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so'zlarni eslayman. Buyuk marifatparvar bobomizning bu so'zlari o'tgan asr boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Nega deganda, bizga sobiq tuzumdan meros bo'lib qolgan maorif tizimining eng nomaqbul tomoni shundan iborat ediki, undan o'quv jarayonida o'quvchi va talabalardan mustaqil va erkin fikrlashga yo'l qo'yilmas edi. Har qaysi o'quv yurtini bitiruvchilarining bilimiga qarab, emas aksincha ularning sobiq sovet tizimiga va sohta g'oyalarga sadoqatni hisobga olib baholash va hayotga yo'llash tamoyili asosiy o'rinni egallar edi. Ko'p hollarda sifat o'rniga son ketidan quvish ustunlik qilardi. Aksriyat yoshlar haqiqiy bilim yoki malaka orttirish

¹ I.A.Karimov. "Barkamol avlod orzusi". Toshkent 2002 yil.

maqsadida emas, ko'proq amalda diplomli bo'lib olish ilinjida texnikum yoki institutlarga kirar edi.

Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillardanoq butun mamlakat miqyosida ta'lim va tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o'rgatish tizimlarini tubdan isloh qilishga nihoyatda katta zarurat sezila boshladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ishlab chiqish bo'lib bog'liq jarayon uzoq yillar davomida bu sohada talay muammolar yig'ilib qolganini ko'rsatdi.

Men bunga ushbu dastur loyihasi ustida sakkiz oy mobaynida ishlash jarayonida shaxsan amin bo'ldim.

Shuning uchun ham bu og'ir, ma'sulyatli, ammo hal qilishni paysalga solib bo'lmaydigan ishni qadam-baqadam, izchillik bilan bajarishga bel bog'ladi.

Ta'lim-tarbiya tizimidagi islohotlar boshlangan dastlabki yillarda men jahon tajribasi va hayotda ko'p bor o'zini oqlagan haqiqatdan kelib chiqib, agar bu maqsadlarimizni muvaffaqiyatli amalgam oshira olsak, tez orada hayotimizda ijobiy ma'nodagi portlash effektiga, ya'ni yangi ta'lim modelining kuchli samarasiga erishamiz degan fikrni bildirgan edim¹.

Darhaqiqat, istiqlol davrida barpo etilgan, barcha shart-sharoitlarga ega bo'lgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari oliy o'quv yurtlarida taxsil olayotgan, zamonaviy kasb-hunar va ilm-ma'rifat sirlarini o'rganayotgan, hozirdanoq ikki-uch tilda bemalol gaplasha oladigan ming-minglab o'quvchilar, katta hayotga kirib kelayotgan o'z iste'dodi va salohiyatini yorqin namoyon etayotgan yosh kadrlarimiz misolida ana shunday orzu-intilishlarimiz buguning o'zida o'z hosilin berayotganning guvohi bo'lmoqdamiz.

Eng muhimi shundaki, "portlash effekti" ning haqiqiy mohiyati va ahamiyati vaqt o'tishi bilan biz tarbiya qilayotgan sog'lom va barkamol avlodning safimizga tobora ildam kirib borishi bilan yanada yaqqolroq seziladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining amalga oshirish jarayonida maktab ta'limi, ayniqsa, umum ta'lim maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga e'tiborni kuchaytirish biz uchun kun tartibidagi eng muhim va jiddiy masalaga aylandi.²

Shu maqsadda yurtimizda Kadrlar tayyorlash milliy dasturining uzviy va mantiqiy davomi bo'lmish 2004-2009-yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy davlat dasturi qabul qilindi.

Ushbu dasturga muvofiq yurtimizda mavjud bo'lgan o'n mingga yaqin umumta'lim maktabining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta'lim jarayonining mazmunini tubdan

¹ I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat engilmas kuch". Toshkent 2008.

² I.A.Karimov. "Barkamol avlod O'zbekiston poydevori". Toshkent 2004.

takomillashtirish, o'quvchilarning mehnatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish bo'yicha katta ishlar qilinmoqda.

Muhtasar qilib aytganda ohirgi yillarda ta'lim- tarbiya sohasida amalgam oshirgan ko'lami va mohiyatiga ko'ra ulkan ishlarimiz biz ko'zlagan ezgu niyatlarimizga erishish, hech kimdan kam bo'lmaydigan hayot barpo etish yoshlarimiz butun xalqimizning ma'naviy yuksalish yo'lida mustahkam zamin yaratdi desak, hech qanday hato bo'lmaydi.

Prizidentimiz nutqlarida xamda qabul qilingan xujjatlarda davlat, jamiyat, vazirliklar, maxalliy xokimiyat organlari, tahlim muassasalari va o'quv yurtlari jamoalari, o'quvchilar va talabalar, ota-onalar va keng jamoatchilik oldida turgan vazifalar aniq belgilab berilgan.

Prezidentimiz tomonidan 2012 yil mamlakatimizda **“Mustaxkam oila yili”**¹ deb ehlon qilindi. Shu ma'noda yoshlarimizni kelajak xayotga ishonch va ruxan, jismonan va mahnan tayyorlanish ishlariga keng jalb qilish darkor. Endigina ilm dargoxini tamomlagan yosh kadrlarni o'z mutaxassisligi bilan bir qatorda o'zlarining mustaqil tadbirkorlik faoliyat olib borish uchun bir qancha imkoniyat va sharoitlar yaratilishi ko'zda tutilmoqda. Yoshlar davlatimiz kelajagining poydevoridir. Ularni xar qanday sharoitlarda xam sobitqadam, yangiliklarni tez o'zlashtirib, ularni xayotga tadbiiq qilish, samarali foydalanish saloxiyatiga ega bo'lgan kuchli, ertangi kun egalari sifatida ulg'aytirish, tom ma'noda pedagog o'qituvchilarning muqaddas burchi va vazifasi.

Tahlim-tarbiya ongining darajasi va uning rivojini belgilaydigan omildir. Binobarin, tahlim – tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib, ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad **“Ozod va obod jamiyat”**ni barpo etib bo'lmaydi.

Kadrlar tayorlashning xamonaviy talablari va davlat tahlim standartlarida yangi tipdagi o'quv yurtlarida xamda tayanch muassasalarida xorijiy til tahlimi tizimi oldiga juda yuksak mahsuliyat bilan yondoshishi zarur va shart etib qo'yilmoqda. Zero, xorijiy tillardan xech bo'lmaganda ikkitasini egallamay turib, mustaqil mamlakatimiz uchun kerakli mutaxassis bo'lib yetishishi mumkin emasligi ochiq-ravshan ayon bo'lib qoldi.¹

Shu ma'noda xorijiy (chet) tilini amaliy maqsadlar uchun o'rganish va o'rgatishdan kuzatilayotgan maqsadlar turlicha talqin etilsada, bular ichida bo'lajak mutaxasislarni muloqotga tayorlash, yani chet tili tahlimi va taxsilidan ko'zlanayotgan maqsad kommunikativ xususiyatda ekani oydinlashadi.

Chet tili va tahlimidan kuzatilgan maqsadlar mazkur xususiyatga ega ekani birinchi o'rinda, shubxasiz chet tilida aloqa qilish amaliyotini qo'yadi-ki, bu amaliyot tildan amalda

¹ I.A.Karimov. “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. Toshkent 2012 yil.

¹ I.A.Karimov. Samarqanddagi so'zlagan nutqida. 2011 yil.

foydalanish mashqlarisiz mumkin emas. Bu amaliyot o'z-o'zidan ayonki nutqiy yani muloqot yo'sinidagi xodisadir. Shu boisdan chet tili tahlimi va taxsilining tashkil etilishi va lingvopsixologik va lingvometodik xususiyatlarni xisobga olingani bilan samaradorlikka daxldor bo'ladi.

Biz kabi chet tili o'qituvchilari yuqoridagi ikki yo'nalishda yani til o'qitishning ruxiy xissiy asoslari xamda tahlimiy-uslubiy yo'riqlari bilan tanishib olish va shu yo'nalishlarda tajriba to'plash kelajakdagi pedagogik faoliyatimizda muxim omil bo'ladi deb xisoblash mumkin.

Shu o'rinda shuni tahkidlash lozimki, bugungi kunda chet tilini o'rganish davr talabiga aylanib ulgurgan. Qaysi bir o'quvchi yoki talabani olmaylik, o'zi o'zlashtirayotgan tahlim sohasidan farqli ravishda, qo'shimcha tarzdagi biror bir chet tiliga mexr qo'yib, uni imkoni boricha yuqori darajada o'zlashtirishga intilmoqda. Yuqorida tahkidlaganimizdek til o'rganuvchilar iloji boricha o'rganayotgan tillarini mukammalroq egallashga intiladilar. Istalgan chet tilini uning lug'at tarkibidagi erkin va turgun so'z birikmalari bezab turadi. Yuqoridagi sabablarga ko'ra bitiruv malakaviy ishimiznig oldiga aniq maqsad va vazifalarni belgilab olamiz.

Tilning lug'at sostavi o'z imkoniyatlari va uni bilish darajasiga ko'ra cheksiz xususiyatlarga egadir.

Tilning lug'at sostavi tinimsiz boyib boradi. Eski so'zlar o'rnini yangi so'zlar egallaydi, boshqa tillardan so'zlar o'tib o'zlashadi, yangi so'zlar yasaladi, yangi ma'nolar hosil qilinadi va hakoza.

Lug'atlar turli maqsadlarga tuziladi va ularni o'rganish, o'z tilining imkoniyatlarini to'laroq egallashda, savodhonlikni oshirishda, nutq madaniyatini yuksaltirishda muhim ro'l o'ynaydi.

Lug'atlarni o'rganishning ahamiyati shundaki, lug'atlar bizning so'z boyligimizni kengaytiradi. Leksikografiya boy tajribaga ega bo'la brogan sari uning ham fan sifatida o'z nazariyasi shakllanmoqda. Lug'atlar oldiga qo'yiladigantalablarning rang-barangligi lug'at turlainig xilma-xilligi bu sohaning kelajagi porloqligidan darak beradi.

Mana shullardan kelib chiqqan holda "Olmon tili leksikografiyasi" mavzusi shu kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Ishning ishlanganlik darajasi Shu o'rinda L.V.Sherbaning lug'atshu-noslikning ahamiyati va mashaqqatlarini inobatga olgan holda "Men tilshunoslikda lug'atshunoslikdan ko'ra jiddiyroq sohani bilmayman" deb aytgan so'zlarini keltirish yuqoridagi fikrlarni isbotlaydi.

Olimning 1939 – yil 27-sentabr kuni sobiq Ittifoq Fanlar Akademiyasi til va adabiyot bo'limida qilgan "Опыт общей теории лексикографии" nomli dokladi nazariy leksikografiyaning shakllanishiga asos soldi. L.V.Sherbaning lug'at turlarini ularning o'ziga hos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'zaro qiyoslab o'rganish va tahlil qilish nazariyasi hozirgi

kunda ham o'z kuchini yo'qotgani yo'q. Sharqiy Yevropa hamda rus lug'atshunosligi tajribasidan kelib chiqqan holda olim olti qarama- qarshi prinsiplar asosida lug'atlarning quyidagi tiplarini taklif etadi:

So'ngi yillarda nazariy leksikografiyaning bir qator yangi sohalari atroflicha o'rganildi. Chunki lug'at tuzish hozirgi kunda kompleks ilmiy va tashkiliy muammolarni hal qilish orqali amalga oshirilishi tabiiy. Bu o'rinda leksikografiyaning keyingi yillarda tez rivoj topayotgan "O'quv leksikografiyasi"- "Unterrichtsbezogene Lexikographie" yo'nalishi yutuqlari diqqatga sazovordir. Bu sohada rus tilshunoslari A.A.Navikov, P.N. Denisov, V.V. Morkovkinlarning ilmiy va amaliy ishlarini alohida takidlash lozim.²

O'quv leksikografiyasining shakllanishida P.N.Denisovning doktorlik dissertatsiyasi, bir qator ilmiy maqolalari, "Очерки по русской лексикологии и учебной лексикографии" monografiyasi katta ahamiyatga ega bo'ldi.³

Mashhur leksikograf L.Zgustaning yozishicha dunyoda leksikografiya bo'yicha qilingan ishlar adadi yigirmataga yaqin ekan holos.¹

L.V.Navikov o'ziga hos "O'quv lug'atlari" tipalogiyasini taklif qiladi. Uning fikriga ko'ra o'quv lug'atlari paradigmatic-sintagmatic, semiosialogik- onomasiologik, bir tilli- ikki tilli lug'atlar hamda tilning mahsus sistem birliklari- so'z yasash, chastotali, valenlik va distributsiya lug'atlaridan iborat bo'lishi lozim.

Ishning maqsad va vazifalari. Bitiruv malaka ishining maqsadi - zamonaviy olmon tili leksikografiyasini o'rganish va ularni takomillashtirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ish oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi.

- Olmon tili lug'atchiligini o'rganish
- Olmon tili bo'yicha yaratilgan lug'atlarni tahlil qilish
- Lug'at turlari va ularning tuzilishini ajratish
- Lingvistik lug'atlar va ularning turlarini belgilash
- Frazeologik lug'atlar haqida ma'lumot berish

Zamon talabiga mos yangi lug'atlar yaratish

Ishning amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari zamon talablariga javob beradigan zamonaviy lug'atlar yaratish, shuningdek roman – german tillarida o'quv lug'atlari, qo'llanma va darsliklik tuzish hamda metodik tadqiqotlar olib borishda nazariy asos sifatida hizmat qiladi.

² П.Н.Денисов, В.В.Морковкин, А.А.Новиков. Проспект учебного словаря сочетаемости слов русского языка. Изд.МГУ, 1971. Словарь сочетаемости слов русского языка под ред Денисова П.Н. и В.В.Морковкина. М., 1972.

³ П.Н.Денисов. Очерки по русской лексикологии и учебной лексикографии. Изд. МГУ. М., 1974.

¹ L.Zgusta. Manual of Lexicography. Praja, Academica, 1971.

Tadqiqot davomida va o'quv dasturlari va lug'atlar o'rganiladi, tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalaridan zamonaviy o'quv lug'atlar yaratishda foydalaniladi.

Mavzuning obyekti va predmeti mavzuning obyekti sifatida zamonaviy, bir tilli va ikki tilli lug'atlarni taxlil qilishni o'rganish jarayonidir. Mavzuning predmeti sifati roman – german tillarida tuzilgan bir, ikki va ko'p tilli lug'atlar asosida til boyligimizni kengaytirish masalasiga oydinlik kiritish deb hisobladik.

Tadqiqot metodi. Ilmiy tadqiqotga olmon tili tilishunosligining keyingi davrdagi lug'atlar haqidagi nazariy meros asos qilib olindi. Shu bilan birga olmon tili leksikologiyasi haqidagi asarlar nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. Ishda chog'ishtirish, tavsifiy metodlardan foydalanildi.

Ishning metodologik asosi sifatida O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 16-avgustdagi 390-sonli Umumiy va o'rta maxsus ta'lim davlat standartini tasdiqlash haqidagi qarorlari asos qilib olindi.

Ishning ilmiy yangiligi “Zamonaviy lug'atshunoslik (roman- german tillari asosida tuzilgan bir va ko'p tilli lug'atlar tahlili) mavzusidagi bitiruv malaka ishini yaratish uchun bir qancha lug'atlar bilan tanishib chiqildi. Bu lug'atlarni tahlil qilish orqali lug'atlarning turlari semantic – Grammatik xususiyatlari haqida to'xtalib o'tildi.

Ishning amaliyotga tadbiiq etilganligi tadqiqot materiallari Andijon Davlat Universiteti Xorijiy tillar fakulteti nemis tili darslarida sinab ko'rildi. Bundan tashqari pedagogik amaliyot davrida Andijon shaxar 14-umumta'lim maktabi 8^s, 8^d -sinflarda sinab ko'rildi va tajriba qilindi.

Ishning tarkibi va hajmi Bitiruv malaka ishi uch bo'lim (Ishning umumiy tavsifi, kirish, xulosalar) II bob hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

Bitiruv malakviy ishining birinchi bo'limi ishning umumiy tavsifi deb nomlanib bu qismda tanlangan mavzuning dolzarbligi, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot metodologiyasi va metodi, olingan natijalar va ishning hajmi haqida ma'lumotlar berilgan.

Ikkinchi bo'limning kirish qismida zamonaviy lug'atlar hozirgi zamon talabi masalalarning o'rganilishi haqida ma'lumot berilgan.

Ikkinchi bo'limning birinchi bobi “ Leksikografiya-lug'atshunoslikni o'rganuvchi fan” deb nomlanib, unda olmon lug'atchiligi, eski olmon tili bo'yicha yaratilgan lug'atlar, eski o'zbek tili bo'yicha yaratilgan lug'atlar- Alisher Navoiyning “Muhokamat ul lug'atayn” asari, Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'atit turk” asarlari haqida umumiy ma'lumotlar berilib bu masalalar yuzasidan tegishli xulosalar chiqarilgan misollar bilan dalillangan.

“Olmon tili leksikografiyasi” deb nomlangan ikkinchi bobida lug’at turlari va ularning tuzilishi, lingvistik, qomusiy lug’atlar va ularning turlari, ideografik lug’atlar xususiyatlari yoritilib berilgan.

Xulosa va takliflar qismida tadqiqot natijalaridan kelib chiquvchi asosiy taklif va xulosalar umumlashtirilgan.

II ASOSIY QISM

1. Leksikografiya - lug’atshunoslikni o’rganuvchi fan har qanday xalqning betakror milliy boyligi uning o’z so’zlari hamda turg’un iboralaridir. Zamon va makon ta’sirida tilning lug’at boyligi doimiy ravishda rivojlanib boradi. Hayot, turmush tarzi taraqqiyot va kashfiyotlar yangi-yangi so’zlar, tushunchalarni dunyoga keltiradi, ba’zi so’zlar esa eskirib iste’moldan chiqadi. Ana shunday dinamik rivojdagi bebaho boyligni o’z vaqtida tarix zarvaraqlariga muxrlash, tilning oltin sahifalarini durlash bilan to’ldirib boorish faqat matonatli, zahmatkash, fidokor tilshunos siymolar gagina nasib etadi. Bunday buyuklarning nomi abadiy hurmatda bo’ladi.

Buning yorqin isboti uchun bobimiz Mahmud Koshg’iy nomini tilga olish kifoyadir. Uning qariyb 1000 yil ilgari yaratgan turkiy tillar tahliliga bag’ishlangan “Devonu lug’atit turk” asari barcha turkiy xalqlarning betakror boyligi hisoblanadi. Mahmud Koshg’ariyning nomi esa tarix sahifalariga abadiy muxrlandi.

Darvoqe, til lug’at boyligining nisbatan to’liq tahlili faqat lug’atlar orqali amalgam oshirilishi mumkin. Lug’atlar tuzishning nazariy va amaliy sohalari bilan shug’ullanuvchi fan leksikografiya deb nomlanadi.

Lexikographie - grek tilidan olingan bo’lib, lexicon - Worterbuch, grapho- ich schreibe, ya’ni so’zni izohlash, ifodalash ma’nosini beradi.

Dunyo leksikografiyasi ming yillik tarihgga ega bo’lsada, uning asosiy rivoji keyingi ikki-uch asrga to’g’ri keladi. Ilk bor oz sonli so’zlar va iboralardangina tashkil topgan qo’l yozmalardan boshlangan lug’atlar hozirgi kunga kelib tillarning yuz ming so’zlarni o’z ichiga olib, minglab adadda chop etilmoqda. Keyingi yillarda leksikografiyaning faqatgina amaliy tomoni emas, balki nazariy yo’nalishi, obykti, predmeti shakllandi. Lug’at tuzish nazriyasi, amaliyoti tilshunoslikning mahsus sohasiga aylandi. Lug’atshunoslik tilshunoslikning mana shunday o’ta mashaqqatli, o’ta masulyatli sohasi bo’lganligi sababli ushbu savobli yo’nalish bilan yetuk, fidokor, millatparvar olimlar shug’ullanmoqdalar.

Lug’at tuzish ishining naqadar mashaqqatli ekanligi, tuzuvchilarning fozil, sabrli, har qanday mayda-chuyda elementlarga ham o’ta sinchkovlik bilan yondashuvchilar ekanligini professor

M.E. Umarxo'jayev Berlin akademiyasi lug'atshunoslik bo'limida kuzatgan edi. "Worterbuch der deutschen Gegenwartssprache" lug'ati tuzilishi jarayonini kuzatganda, ustoz lug'atshunos olimi Rut Klappenbax va uning rahbarligidagi lug'at tuzuvchilar har bir so'zning fo'netik shakli, morfologik qurilishi va ma'no turlarini bir necha yuzlab, xatto minglab uzoq tarixiy manbalardan olingan tasdiqlovchi misol- kartotekalar orqali hozirgi kundagi aniq holatni ifodalaganlariga guvoh bo'lgan. Rut Klappenbachning ish stoli yonidagi devorda orta asrlarning mashhur filologi Yustus Skaligerning lug'at tuzishning naqadar mashaqatli, og'ir va sharafligini betakror o'xshatishlar orqali ifodalagan ushbu misralari joy olgan edi:

Agar kimdir og'ir mehnatu, azoblarga mahkum etilgan bo'lsa, unga temirchi-yu, konchilar mashaqqatini ravo ko'rmay qo'yaqol-da, unga lug'at tuzishni buyur: shu I ishning o'ziyoq barcha mashaqqatlarning mashaqqatlirog'idir. Ushbu sh'erning ruscha tarjimasi nazariy leksikografiyaning asoschilaridan biri mashhur tilshunos akademik L.V. Sherbaning ham e'tiborini tortgan ekan.¹

Если в мучительские осуждён кто руки
Ждёт бедная голова печали и муки
Не вели томить его делом, кузнец, трудных,
Не посылать в тяжкие работы мест рудных.
Пусть лексикон делает- то одно довлеет,
Всех мук роды сей един труд в себе имеет.

Shu o'rinda L.V.Sherbaning lug'atshunoslikning ahamiyati va mashaqqatlarini inobatga olgan holda "Men tilshunoslikda lug'atshunoslikdan ko'ra jiddiroq sohani bilmayman" deb aytgan so'zlarini keltirish yuqoridagi fikrlarni isbotlaydi.

Olimning 1939 – yil 27-sentabr kuni sobiq Ittifoq Fanlar Akademiyasi til va adabiyot bo'limida qilgan "Опыт общей теории лексикографии" nomli dokladi nazariy leksikografiyaning shakllanishiga asos soldi. L.V.Sherbaning lug'at turlarini ularning o'ziga hos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'zaro qiyoslab o'rganish va tahlil qilish nazariyasi hozirgi kunda ham o'z kuchini yo'qotgani yo'q. Sharqiy Yevropa hamda rus lug'atshunosligi tajribasidan kelib chiqqan holda olim olti qarama- qarshi prinsiplar asosida lug'atlarning quyidagi tiplarini taklif etadi:

1. Akademiewörterbücher -- Nachschlagewörterbücher
2. Enzyklopädisches Wörterbuch - allgemeines Wörterbuch
Vollständiges einsprachiges
Wörterbuch
3. Thesaurus - Bedeutung –bzw. Übersetzungswörterbuch

¹ Л.В.Щерба. Языковая система и речевая деятельность. Ленинград, 1971, с 312.

4. alphabetisches Bedeungs-bzw. Übersetzungswörterbuch—ideographisches Wörterbuch

5. Bedeutungswörterbuch-zwei oder mehrsprachiges Übersetzungswörterbuch

6. synchronisches Wörterbuch -historisches (diachronisches) Wörterbuch

L.V.Sherbaning lug'atlar tipalogiyasi so'nggi yillarda turli tillar lug'atlarini tuzish tajribasi asosida rivojlantirildi. Masalan, I.V.Rahmanov L.V.Sherba nazariyasi asosida olmon tili lug'atlarini to'rt guruhga ajratadi:

1. Wörterbücher, die auf die Herkunft des Wortes und die Entwicklung seiner Bedeutung ergeben:

a) etymologische Wörterbuch

b) historische Wörterbuch

2. Wörterbücher, die Wortbedeutung und den Wort gebrauch in der Gegenwartssprache erschliessen:

a) Bebeutungswörterbuch, Handwörterbuch oder erklärendes Wörterbuch

b) zweisprachiges Wörterbuch

c) Stilwörterbuch

d) phraseologisches Wörterbuch

e) Synonymwörterbuch

f) Sachgruppenwörterbuch

g) Fremdwörterbuch

h) Fachwörterbuch

i) Rotwelsch- Wörterbuch

j) mundartliches Wörterbuch

3. Wörterbuch, die den Lautbestand und die Rechtschreibung der Wörter angeben:

a) Aussprachewörterbuch

b) Rechtschreibungswörterbuch

4. Wörterbücher, die die Begriffe (Gegenstände, Erscheinungen sowie Eigennamen) erschliessen:

a) Konversationswörterbuch oder- lexikon

b) Sachwörterbuch

c) Bildwörterbuch¹

So'ngi yillarda nazariy leksikografiyaning bir qator yangi sohalari atroflicha o'rganildi. Chunki lug'at tuzish hozirgi kunda kompleks ilmiy va tashkiliy muammolarni hal qilish orqali amalga oshirilishi tabiiy. Bu o'rinda leksikografiyaning keyingi yillarda tez rivoj topayotgan

¹ L.W.Scheweljowa. lexikologie der duetschen Cegenwartsspache. Vorlesungen. M., 2004, S.185.

“O’quv leksikografiyasi”- “Unterrichtsbezogene Lexikographie” yo’nalishi yutuqlari diqqatga sazovordir. Bu sohada rus tilshunoslari A.A.Navikov, P.N. Denisov, V.V. Morkovkinlarning ilmiy va amaliy ishlarini alohida takidlash lozim.²

O’quv leksikografiyasining shakllanishida P.N.Denisovning doktorlik dissertatsiyasi, bir qator ilmiy maqolalari, “Очерки по русской лексикологии и учебной лексикографии” monografiyasi katta ahamiyatga ega bo’ldi.³

Darvoqe, jahon tillari nazariy leksikografiyasi tarihiga nazar tashlasak hamda ushbu yo’nalishni tilning tarixi, grammatikasi, fonetikasi va boshqa sohalarini o’rganuvchi fanlar bilan qiyoslasak, leksikografiya sohasida qilingan ilmiy tadqiqotlar daryodan tomchiga o’xshaydi.

Mashhur leksikograf L.Zgustaning yozishicha dunyoda leksikografiya bo’yicha qilingan ishlar adadi yigirmataga yaqin ekan holos.¹

L.V.Navikov o’ziga hos “O’quv lug’atlari” tipalogiyasini taklif qiladi. Uning fikriga ko’ra o’quv lug’atlari paradigmatic-sintagmatic, semiosilogik- onomasiologik, bir tilli- ikki tilli lug’atlar hamda tilning mahsus sistem birliklari- so’z yasash, chastotali, valenlik va distributsiya lug’atlaridan iborat bo’lishi lozim.

Turli vaqtlarda ham son, ham sifat nuqtai nazaridan turlicha tuzilgan olmon tili lug’atlari klassifikatsiyasi taniqli lingvistlar E.Ergikola, V.Flaysler, X.Protse tomonidan ishlab chiqilgan hamda “Kleine Enzyklopädie. Die deutsche Sprache”, Leipzig, 1969 kitobida uch nuqtai nazaridan yoritilgan.²

1. nach dem Sprachträger
2. nach den Entwicklungsstufen der Sprache
3. nach der Sprachstruktur

1.1. G’arb lug’atshunosligi. Darhaqiqat, G’arb tillari amaliy leksikografiyasi so’ngi asrda yangi pog’onaga ko’tarildi. Bu o’rinda ingliz tilining Oxford, Webster, fransuz tilining Larus, olmon tilining Duden, Langenscheidt, Rossiya nashriyotlarining sermahsul va sifatli lug’atlarini eslatib o’tish kifoya. Bunda nazariy jihatdan asoslangan, amaliy tomondan ma’lum maqsadga yo’naltirilgan lug’atlar yaratish va chop etish izchil yo’lga qo’yilgan. Demak bizning nazarimizda ma’lum bir aniq maqsadga yo’naltirilmagan, olinayotgan-berilayotgan so’zlarning son va sifat jihatlari ilmiy asoslanmagan, faqat tuzuvchining “ta’bi” hamda iqtidori bilan chegaralanib qolayotgan lug’atlarni chop etish davri o’tdi.

² П.Н.Денисов, В.В.Морковкин, А.А.Новиков. Проспект учебного словаря сочетаемости слов русского языка. Изд.МГУ, 1971. Словарь сочетаемости слов русского языка под.ред Денисова П.Н. и В.В.Морковкина. М., 1972.

³ П.Н.Денисов. Очерки по русской лексикологии и учебной лексикографии. Изд. МГУ. М., 1974.

¹ L.Zgusta. Manual of Lexicography. Praha, Academica, 1971.

² L.W.Scheweljowa. Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache. Vorlesungen. М., 2004, S.186-190.

Zamonaviy leksikografiyaning quyidagi tushunchalarini chuqur o'rganmasdan turib davr talabiga to'la javob beradigan lug'atlar tuzish mumkin emas:

1. So'zlik masalasi- Wortgut, Stichwörterverzeichnis, Vokabular
2. Bosh so'z - Stichwort, Lemma, Vokabel
3. Lug'at maqolasi- Stich-Wortartikel, Wörterbuchartikel
4. Izoh berish - Wortdefinition, Stichworterklärung
5. Illustrativ misollar- Anwendungsbeispiele, Belege
6. Illustratsiya- Abbildungen
7. Stilistik ko'rsatkich va belgilar- stilistische Vermerke, Hinweise
8. Grammatik, etimologik va boshqa ko'rsatkichlar- grammatische, etymologische und andere Angaben
9. Leksikografik tarjima-- lexikographische Überetzung
10. Lug'atning maqsad va vazifasi - Ziel und Zweck des Wörterbuches

Yuqorida zikr etilgan to'qqiz prinsipning baechasi o'ninchi prinsipning qay darajada amalga oshirilishiga bog'liq. Boshqacha aytganda har qanday lug'atning sifat va soni o'ninchi prinsipning to'laqonli aniqlanishi va unga qat'iy amal qilinishiga bog'liq, qolgan prinsiplar ham lug'at kim uchun, qanday maqsadni ko'zlab tuzilayotgaligi bilan bevosita aloqadordir.

Tanlab olinayotgan leksemalarning umumiy hajmi, ularning sifat ko'rsatkichlari, yani adabiy til doirasidagi so'zlar bilan chegaralanganmi yoki kundalik og'zaki nutq, ijtimoiy qatlamlarga taalluqli birliklar, dialektizmlar, terminlar, arxaizm va neologizmlar, o'zlashtirma so'zlarni qamrab olish darajasi lug'atning qay maqsadni ko'zlaganligi bilan bog'liqdir.

Lug'at so'zligini tanlash bir qator prinsip va kriteriyalar asosida amalga oshiriladi.

1. Bosh so'zning tilda qo'llanish darajasi, chastotasi.
2. Bosh so'zning ma'no va kommunikativ qiymati, ahamiyati.
3. Boshqa so'zlar bilan leksik - sintaktik bog'lanish xususiyati
4. So'z yasash qobilyati.
5. Metodik- didaktik zaruriy til materiali sifati va b.

An'anaga ko'ra jahon leksikografiyasi amaliyotida lug'atdagi bosh so'zlar ikki hil usulda joylashtiriladi.

Birinchi yo'l so'zlarni alfavit tartibida joylashtirish yo'li bo'lib, biror ilmiy prinsipga asoslanmagan bo'lsa-da, kerakli so'zni izlab topish uchun qulaydir hamda bir va ikki tilli lug'atlar tuzishda keng qo'llanadi.

Ikkinchi yo'l ideografik, tematik prinsiplar asosida tanlangan leksemalarning joylashuvidir.

Ilmiy-tematik prinsiplar asosida tuzilgan lug'atlarning soni ko'p emas, lekin ularning til o'rgatish jarayonidagi ahamiyati katta. Ayniqsa o'quv- leksik, frazeologik, sinonimik va boshqa maxsus lug'atlar shunday tematik prinsiplar asosida tuzilsa, ularning lingvodidaktik qimmati beqiyos ortadi.

Bir tilli lug'at tuzish jarayonida bosh so'zning ma'nosini ochib berish masalasini ishlab chiqish katta ahamiyatga ega. "Bir til ichidagi tarjima" deb ham yuritiladigan izohlash yo'llari lug'atshunoslikda chuqur bilim va tajriba talab etadi. Bu borada zarur o'rinlarda sinonimlar, antonimlar, ma'noni ochib beruvchi kichik tekstlar, turli stilistik-grammatik belgilardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bosh so'zning ma'nosini ochish hamda qo'llanish ko'lamini ko'rsatishda turli badiiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar, ommaviy ahborot vositalari materiallaridan olingan illyustrativ misollar katta ahamiyat kasb etadi.

Ikki va ko'p tilli lug'atlar tuzishning markaziy masalalaridan biri ikki til o'rtasidagi so'z va iboralarning ekvivalent munosabatlarini o'rnatish masalasidir.

Har qanday lug'atning qimmati, ahamiyati bosh so'zlarga berilgan stilistik belgilar qay darajada amalga oshirilganligi bilan ham o'lchanadi. Chunki stilistik tomondan qandaydir xususiyatga ega bo'lgan ma'lum so'zning qachon?, qayerda?, kimga nisbatan?, qo'llanish dunyosini ochib berish stilistik belgilar zimmasiga tushadi. Bu narsa ayniqsa ikki tilli lug'at tuzishda katta ahamiyatga egadir.

Olmon tili lug'atlari leksikasi stilistik nuqtai nazardan asosan to'rt, besh qatlam asosida ajratib ko'rsatiladi.

1. Normalsprachlich oder neutralliterarisch.
2. Umgangssprachlich bis salopp-umgangssprachlich: -umg, -ungs, salopp, fam.
3. derb oder vulgar- derb, vulg.
4. gehoben- geh
5. dichterisch oder poetisch- poet.

Shu bilan birga stilistik jiloga ega bo'lgan bir qator so'zlarning xususiyatini ifodalovchi abwertend, gespreizt, ironisch, scherzhaft, spöttisch, übertrieben, verhüllend, vertraulich va shu kabi belgilar qo'llanadi.

Zarur o'rinlarda so'zning grammatik xarakteristikasi beriladi. Masalan, bei Substantiven- Genitivflexion Pluralform; bei Verben- transitiv – intransitiv; yoki so'zning territorial sotsial, terminalogik bog'liqligini ifodalash uchun quyidagi belgilar ishlatiladi: landschaftlich, norddeutsch, österreichisch, veraltet, historismus, neuwort, Studentensprache, Medizin.

Alohida ta'kidlash lozimki, taraqqiy etgan mamlakatlar leksikografiyasida, ayniqsa Amerika, Angliya, Fransiya, Ispaniya, Italiya, Rossiya hamda Germaniya lug'atshunoslik

amaliyotida lug'atlarning o'ziga hos tizimli sistemasi yaratilgan. Misol tariqasida quyidagi sistem lug'atlarni keltirish mumkin: 1880-yili Konrad Duden tomonidan chop etilgan "Vollständiges orthographisches Wörterbuch der deutschen Sprache" lug'atidan boshlab to hozirgi kungacha "Duden" nomi bilan qator lug'atlar chop etildi.

Ular yildan-yilga ham son, ham sifat jihatdan takomillashmoqda: "Der Duden in zwölf Banden", "Das Standardwerk zur deutschen Sprache". Duden nashriyoti ilmiy kengashi (Dr. Mathias Wermke-Vorsitzender, Dr. Kathrin Kunkel, Dr. Werner Scholze) tomonidan quyidagi seriyada lug'atlar nashr etildi.

1. Duden- Rechtschreibung.
2. Duden- Stilwörterbuch
3. Duden- Bildwörterbuch
4. Duden- Grammatik
5. Duden- Ferndwörterbuch
6. Duden - Aussprachwörterbuch
7. Duden- Herkunftswörterbuch
8. Duden- Synonymwörterbuch
9. Duden- Richtiges und gutes Deutsch
10. Duden- Bedeutungswörterbuch
11. Duden- Redewendungen und sprichwörterliche Redensarten.
12. Duden – Zitate und Aussprüche.

Demak, jahon leksikografiyasida sifat o'zgarishlari kuzatilmoqda. Lug'at-shunoslikning yangi-yangi yo'nalishlari ularning obyektlari ilmiy hamda amaliy jihatdan asoslanmoqda.

Leksikografiyaning o'ziga xos yo'nalishlaridan frazeografiya hamda terminografiyani alohida ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiqdir. Keyingi yillarda tildagi turg'un so'z birikmalari lug'atlari strukturasi, tarihi va tiplari bilan shug'ullanuvchi frazeografiya yo'nalishi ilmiy va amaliy tomondan shakllangan bo'lsa, fan-tehnika taraqqiyoti tufayli kundun-kunga ko'payib borayotgan terminlarni tartibga slogan holda turli lug'atlar tuzilishini ilmiy asoslovchi terminografiya fani, dialect lug'atlarini tartibga soluvchi dialektografiya, yangi yo'nalishdagi ideografiya hozirgi kun leksikografiyasining dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ushbu yo'nalishlarning o'ziga xos xususiyatlari hamda ahamiyatini hisobga olgan holda ularga alohida to'xtalamiz.

1.2. Sharq lug'atshunosligi. Har qanday adabiy til o'zining paydo bo'lishi, shakllanishi tarixida turli ijobiy jarayonlarni boshidan kechiradi. Ijobiy jarayonlar tilning yanada takomillashuvi va taraqqiyot uchun xizmat qilsa, salbiy jarayonlar unga to'siq bo'ladi. Eski

o'zbek tili bo'yicha yaratilgan lug'atlar hozirgi o'zbek adabiy tilining taraqqiyotida juda muhim o'rin tutadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining asosi shu davrdan boshlab o'z o'rnini topa boshlagan. Shu davrda o'zbek adabiyotini klassik adabiyot darajasiga ko'targan Alisher Navoiy ayni chog'da o'zbek adabiy tilini ham klassik til darajasiga ko'targan Navoiy tili bir necha asr davomida turk xalqlar orasida namuna til bo'lib xizmat qildi.

X-XI asrlarda O'rta Osiyo ijtimoiy –madaniy hayotida alohida bir davrni tashkil qiladi. Bu davrda ilm-fan, adabiyot va sanoatning yuksala borishi uyg'onishi nishonalarini yuzaga keltirgan edi.

Bu davrda umumiy tarixiy taraqqiyot asoschilari Al-Xorazmiy, Farobiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sinolar maydonga chiqdilar, Ular o'zlarining amaliy faoliyatlari, tarix, falsafa , mantiq , shuningdek, aniq fanlar sohasidagi kashfiyotlari bilan O'rta Osiyoning qadimiy tarixida chuqur iz qoldirdilar. Bu o'rinda Farobiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Nasriddin Tusiy kabilarning qadimgi yunon ilm-fanga bo'lgan katta diqqat e'tiborlari muhim ro'l o'ynaydi.

Bu davrda ilm- faniga katta hissa qo'shgan olimlarning tong'ichi Al- Xorazmiy edi. Al- Xorazmiy 8-asrning oxirlarida yashab aktiv, ilmiy faoliyat bilan o'zidan keyin boy meros qoldirdi.

X-XI asrlar o'zbek adabiyoti tematik jilolari janrlar boyligi bilan diqqatni tortadi. Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'ati turk” asari orqali yetib kelgan badiiy ijod namunalari o'z navbatida shu fikrga ham asos beradi. Bizgacha saqlanib qolgan manbalar 10-12-asrlar ilg'or ijodiy-badiiy fikr taraqqiyotida ko'proq didaktik adabiyot katta ro'l o'ynaganligini ko'rsatadi o'tmishi xalqni adabiyoti bilan har jihatdan bog'langan bu adabiyot diniy-mistik adabiy oqimga qarshi turdi.

Yana bir bor aytishimiz mumkin, o'zbek leksikografiyasining tarixi Mahmud Koshg'ariyning XI asrda yaratilgan mashhur “Devonu lug'atit turk” asari bilan boshlangan. Ushbu lug'at faqat so'zlar va ularning ma'nolarini tavsiflab qolmasdan, turkiy xalqlar tarixi, urf-odatlarini, geografik joylashuvi kabi keng malumotlarni ham qamrab olgan. Shu bilan birga, u dastlabki ikki tilli (turkiycha-arabcha) izohli lug'atlardandir. Yana bir yurtdoshimiz Mahmud Zamahshariy o'zining “Asos ul balog'a” asari va “Muqaddimat ul-adab” (XII asr) deb nomlangan to'rt tilli (arab, fors, o'zbek, mo'g'ul) lug'ati bilan ham amaliy, ham nazariy leksikografiya rivojiga katta hissa qo'shdi. XIII asrda esa “At-tuhfatuz zakiyati fil-lug'tit-turkiya” deb nomlangan noyob lug'atlardan biri yaratildi. Alisher Navoiy ijodiga bo'lgan katta qiziqish XV asrdan keyingidavrdan buyuk shoir asarlari tili, umuman eski o'zbek tili bilan bir qancha lug'atlarning yaratilishiga sabab bo'ldi: Tole Imoni Hiraviyning “Badoe ul- lug'at”(XV asr) nomli chig'atoycha-forscha lug'ati, “Abushka” nomli mashhur bo'lgan chig'atoycha-turkcha izohli

lugʻat (XVI asr, Turkiya), Muhammad Yoqub Chingiyning “Kelurnoma” deb nomlangan oʻzbekcha- forsha lugʻati(XVII asr), Muhammad Rizo Xoksoning “Muntahab ul- lugʻat” nomli izohli lugʻati(XVIII asr), Mirzo Mahdiyxonning “Sangloh” nomli chigʻatoycha- forsha lugʻati (XVIII sar), Sulaymon Buxoriyning “Lugʻati chigʻatoy va turki usmoniy” (XIX asr) kabi va boshqa lugʻatlar shu jumladandir. Sharqshunoslik va turkiyshunoslik fanlarining rivojlanishi tufayli anʻanaviy lugʻatchilik bilan bir qatorda XIX asr 2-yarmidan yangicha yoʻnalishdagi oʻnlab ruscha- oʻzbekcha, oʻzbekcha-ruscha va umuman turkey tillar leksikasini izohlovchi lugʻatlar ham paydo boʻla boshladi. Bu jihatdan L.ZBudagovning ikki jildli “Сравнительный словарь турецко-татарских наречий” (“Turkiy lahjalarning qiyosiy tugʻati”). V.V.R adlovning 4 jildli ”Опыт словаря тюрских наречий” (“Turkiy lahjar lugʻati tajribasi”,СПБ, 1893-1911) V.P.Nalivkin va M.Nalivkinalarning 1884-1912- yillarda bir necha marta nashr etilgan “Русско-сартовский и сартовско- русский словарь” (ruscha –sortcha va sartcha- ruscha lugʻati) kabi lugʻatlar diqqatiga sazovordir.

Oʻzbek lugʻatchiligi tarixida XXasr alohida oʻrin tutadi. Bu davrda turli maqsadlarni loʻzda tutgan koʻplab terminalogik lugʻatlar, oʻquv va imlo lugʻatlari, ikki va uch tilli soʻzlashgichlar yaratildi. Bunda ayniqsa, ruscha- oʻzbekcha va oʻzbekcha- ruscha, shuningdek oʻzbek tilini boshqa yevropa va xorijiy sharq tillari bilan qiyoslab oʻrganishga moʻljallangan lugʻatlar alohida oʻrin tutadi. Ularning eng muhimlari sifatida E.D.Polivanovning “Qisqacha ruscha-oʻzbekcha lugʻat”I (Toshkent, Moskva,1926), Ashurali Zohiriyning 2jildli “Ruscha-oʻzbekcha mukammal lugʻati” (34 ming soʻz; Toshkent 1927-28), K.K.Yudaxinning “ Qisqacha oʻzbekcha-ruscha lugʻati”(arab grafikasida, Toshkent 1927), U.Axmadjonov va B.Ilyozovning “Oʻzbekcha-ruscha lugʻat”i (lotin grafikasida, Toshkent 1931), S.Rahmatiy va Abdulla Qodiriylarning “Ruscha-oʻzbekcha toʻla soʻzlik” (2-jild, 34 ming soʻz; Toshkent- qozon,1934, lugʻatning 1-jildi nashr etilmay qolgan), V.V.Reshetovning” Qisqacha oʻzbekcha-ruscha lugʻati”(Toshkent, 1935) kabilarni koʻrsatish mumkin. 40-yillarning boshlarida 17-ming soʻzli “Oʻzbekcha – ruscha lugʻat” (Toshkent 1941) va 30 ming soʻzli “Ruscha - oʻzbekcha lugʻat” (Toshkent 1942) yaratildi va nashr etildi. Professor T.N.Qori-Niyoziy va professor A.K.Borokovlar tahriri ostida tayyorlangan ushbu lugʻatlar soʻzligining tarkibi jihatidan ham, lugʻat maqolalarining toʻlaligi jihatidan ham avval nashr etilgan lugʻatlardan ancha mukammal edi. Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti leksikograflarining respublikadagi tajribali tarjimonlar bilan hamkorlikda yaratgan 5 jildli “Ruscha-oʻzbekcha lugʻat”ning bosilib chiqishi (78 ming soʻz Toshkent 1950-55), 50 ming soʻzli 1 jildli “Ruscha - oʻzbekcha lugʻat” (M. 1954) va 40 ming soʻzli 1 jildli “Oʻzbekcha - ruscha lugʻat” (M. 1959) kabi lugʻatlarning nashr qilinishi oʻzbek leksikografiyasining tarixida muhim voqea boʻldi. Mazkur lugʻatlar, ayniqsa, 1959 - yilda nashr etilgan “Oʻzbekcha - ruscha lugʻat” oʻzbek tilining dastlabki, birinchi

izohli lug'ati tuzish uchun asos bo'ldi va uning ilmiy bazasini yuzaga keltirdi. Ushbu lug'atlarda o'zbek leksikografiyasining tajribalari umulashtirilgan, hozirgi zamon o'zbek tilining leksik-semantik tizimi va XX asrda shakllangan meyorlari birinchi marta keng tavsif etilgan edi.

Bu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, o'zbek tilining turli tarixiy davrlariga, turli funksional uslublariga oid bitmas- tunganmas so'z boyligini to'la – to'kis qamrab olish uchun ma'lum xronologik chegaralarga ega bo'lgan, aniq maqsadga mo'ljallangan lug'atlar tuzish taqozo etiladi. Masalan, Alisher Navoiy va boshqa mumtoz shoirlarning asarlarini o'qish uchun mahsus lug'at zarur, chunki eski o'zbek tili hozirgi o'zbek adabiy tilidan lug'at tarkibi jihatidan ham, Grammatik qurilishi jihatidan ham sezilarli farq qiladi. Bunday lug'atlar tuzilgan va nashr etilgan ham. Masalan, P.Shamsiyev va S.Ibrohimovlarning “Navoiy asarlari lug'ati” (Toshkent 1972). Bu lug'at birinchi marta 1953 - yilda “o'zbek klassik adabiyoti asarlarini o'qish uchun qisqacha lug'at” nomi bilan nashr etilgan edi. 1983-1985- yillarda esa professor E.I.Fozilov rahbarligida shoir asarlari tilining 4 jildli ancha mukammal lug'ati nashr etildi.

O'zbek tili leksikasi, hatto XX asrning o'zini olib qaraganda ham, tarkib jihatidan bir hil emas. Unda ayrim mualliflar tomonidan ishlatilgan, lekin hali o'zbek adabiy tiliga kirib ulgurmagan, shuningdek, shevalarga oid so'zlar ham anchagina. Bundan tashqari O'zbekistonda qadimdan rivijlangan kasb- hunarlarga oid, faqat hunarmandlar o'rtasida ishlatiladigan leksika yoki XX asrda o'zbek tili paydo bo'lgan son-sanoqsiz ilmiy-texnikaviy terminlar borki, bularning hammasini bitta lug'atga sig'dirib bo'lmaydi. Ayni shu sababli kasb-hunar, sheva lug'lari, terminalogik lugatlar tuzish tajribasi ham mavjud. Bu jihatdan S.Ibrohimovning 3 qismli “Farg'ona shevalarining kasb-hunar leksikasi” lug'ati (Toshkent 1965; 2- nashri 1972), akademik Sh.Sh.Shoabdurahmonov tahriri ostida nashr etilgan “O'zbek xalq shevalari lug'ati” (Toshkent 1972), Olim Usmon rahbarligida tuzilib nashr etilgan “Ijtimoy-siyosiy terminlar lig'ati” (Toshkent, 1976) va boshqa o'nlab lug'ati e'tiborga loyiq.

2. Lug'at turlari va ularning tuzilishi. So'zlarning ma'lum maqsad bilan to'plangan tartibga solingan kitob yoki boshqa shakldagi to'plami lug'at deyiladi.

Lug'atlar turli maqsadlarga tuziladi. Ko'zlangan maqsad jihatidan lug'atlar 2 xil bo'ladi.

1) Ensiklopedik (Qomusiy) lug'atlar

2) Lingvistik lug'atlar

Har ikki tur lug'at o'rtasidagi o'xshashlik quyidagicha.

a) lug'at maqolalarining vokabulasiga asosan, leksema chiqariladi.

b) Bu leksemalar qatoriy alifbo tartibda joylashtiriladi.

Bular faqat tashqi yuzaki o'xshashlikdir. Aslida lug'atning bu ikki turi o'z maqsadiga ko'ra va maqolalarning tuzilishiga, mundarijasiga ko'ra tubdan farq qiladi.

Ensiklopedik (qomusiy) lug'atlarda texnik va madaniyatning barcha sohalariga oid tushunchalar izohlanadi. Ularda tabiat hodisalari, ijtimoiy hayotdagi voqealar, mashhur kishilar chiqishining ko'rsatish bilan chegaralaniladi. Shuning uchun bunday lug'atlar tushuncha lig'ati deb yuritiladi.

Bunday lug'atlarda odatda, rasmlar, karta va sxemalar ham keltiriladi.

Ensiklopedik lug'atlarda so'z va iboralar alfavit tartibda maqolaning sarlavhasi sifatida qo'yiladi.

Ensiklopedik lug'atlar ham maqsad va vazifasiga ko'ra 2 xil bo'ladi: umumiy ensiklopedik lug'atlar va biror sohaning ensiklopedik lug'ati.

Ensiklopedik lug'atlar sharqda "Qomus", g'arbda esa "thesaurus" deb ham yuritilgan.

Lingvistik lug'atlarda lug'at boyligi aks ettiriladi. Bunday lig'atlar asosiy maqsad leksema va frazeomalarning semantic mazmunini tavsiflashdir. Bundan tashqari, Grammatik va fonetik ma'lumot qisman keltiriladi. Lug'at maqolasining asosiy qismini leksik ma'nolarning talqini egallaydi. Bunda so'zning bosh manosi haqida fikr yuritiladi, agar, lozim topilsa shu ma'noning ishlatilishini aks ettiruvchi misol keltiriladi, so'ngra bu so'zning hosila, ko'chma ma'nolari tasvirlanadi. Bunday ma'nolarning tasvirida misollar keltirish shart, chunki bularni anglash uchun konteks talab qilinadi.

Leksik ma'noni tasdiqlovchi nutq parchalari odatda badiiy va boshqa adabiyotlardan olinadi. Agar leksik ma'nolar ma'lum sistema bo'yicha to'plangan misollar yordamida izohlansa, bunday lug'atning qiymati yuqori bo'ladi. Chunki bunday ish tutishda lug'at boyligini obyektiv tasvirlashga erishiladi. Lug'atlarda so'z va frazemalar ikki xil joylashtiriladi.

Birinchisi yagona alfavit tartibda joylashtiriladi. Masalan, bir o'zakdan yasalgan so'zlar bir joyga to'planadi va o'zaro yasalishiga qarab alfavit tartibda joylanadi.

Ikkinchisi, frazeomalar tematikasiga ko'ra joylashtiriladi.

2.1. Lingvistik lug'atlar va ularning turlari lingvistik lug'atlar turli maqsadlarda tuziladi va ularning turlari ham ko'p. So'zning biror sohaga oid leksikasi bilan adabiy til leksikasining ma'lum qatlam bilan chegaralanganligi va chegaralanmaganligiga ko'ra lug'atlar dastlab ikkiga bo'linadi:

- 1) umumiy lug'atlar
- 2) maxsus lug'atlar

Umumiy lingvistik lug'atlarda hamma qo'llaydigan so'zlarning xarakteristikasi beriladi.

Bular bir tilli, ikki tilli, ko'p tilli bo'ladi. Bir tilli lug'atlarning ham umumiy va maxsus tiplari bor. Masalan, izohli lug'at, imlo lug'ati, sinonimlar lug'ati, frazeologik lug'at, dialectal lug'at maxsus lug'atlar tipiga kiradi.

2.2. Izohli lug'atlarda lug'aviy birliklarning ma'nosi izohlanadi. Agar lig'aviy birlik ko'p ma'noli bo'lsa uning barcha ma'nolari belgilanadi va har bir ma'nosi izohlanadi. Umumiy izohli lug'larda so'zlarning ma'nosi izohlanadi, ularning Grammatik, stilistik, frazeologik iborada qatnashishi kabi belgi xususiyatlari ko'rsatiladi. Lug'aviy birlikning ma'nosi izohlanadi shunga misol keltiriladi. Izohli lug'atlarga quyidagi lug'atlarni misol qilib keltirish mumkin.

O'zbek tilining yangi izohli lug'ati, yangi tahrirda chiqarilgan, O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti "O'zbek tilining izohli lug'ati" 5 jildli bo'lib, 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasini o'z ichiga oladi. O'zbek tilining ushbu izohli lug'ati keng xronologik doirada o'zbek tilining butun so'z boyligini emas, balki hozirgi zamon o'zbek tilining keng iste'moldagi so'z boyligini to'plash va tavsiflashni o'ziga maqsad qilib qo'yadi. Chunki o'zbek tili XX asrning 2-yarmida, xususan, keyingi o'z yilda yangi- yangi so'zlar so'z shakllari va ifoda vositalari bilan boyidi shu bilan birga, sifat jihatidan ham ancha o'zgardi.

Shunday qilib, lug'atning asosiy vazifasi hozirgi o'zbek adabiy tilining so'z boyligini to'plash va tavsiflash bilan birga uning meyorlarini belgilash va barqarorlashtirishdan iboratdir. Ayni zamonda u nutq madaniyatining yuksalishiga ham xizmat qiladi.

O'zbek tilining ushbu izohli lug'atini tuzishga kirishishdan oldin katta tayyorgarlik ishlari olib borildi. Badiiy adabiyot namunalariga tayanib, lug'atning leksik asosi-lug'at kartotekasi fondini to'ldirish va boyitishga alohida e'tibor berildi. Chunki tilning boyligi va meyorlari, avvalo, so'z ustalarining asarlarida aks etadi, sayqal topadi.

Natijada kartoteka fondida Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Haza Hakimzoda Niyoziydan boshlab to shu kungacha bo'lgan o'zbek yozuvchilari asarlaridan hamda o'zbek tilida nashr etilgan ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-tehnikaviy, diniy- falsafiy, ilmiy-ommabop asarlar, darsliklardan, vaqtli matbuot va qisman boshqa tillardan o'zbekchaga qilingan tarjimalardan olingan uch millionga yaqin misol-kartochka to'plandi.

Lug'atdan misollar keltirsak:

Adabiy-vaqt e'tibori bilan ohiri yo'q; mangu, doimiy . Adabiy hayot. Adabiy hotira. – Shaharlarning nomi abadiy. Bu nomlarni qo'ygan el ulus. Maqsud Shayxzoda.

Abiturient – [lot. Abituriens, abiturientis- ketmoqchi bo'lgan kishi]

1) O'rta maktabni bitirayotgan o'quvchi

2) Oliy yoki o'rta maxsus o'quv yurtiga kirish uchun da'vogar.

Imtihonlarni boshlashdan avval qur'a tashlanadi. Biletlarni olish uchun abiturientlardan to'rt kishi chiqariladi. Gazetadan.

Afv- [gunohidan o'tish, kechirish] kt. Kechirim uzr. Sizdan bu ulug' gunohim uchun afv so'rab, xaydalgan o'g'lingiz –Otabek Yusufbek hoji o'g'li. Abdulla Qodiriy, "O'tgan kunlar".

Afv etmoq- (yoki qilmoq) Kechirmoq, uzni qabul qilmoq, gunohidan o'tmoq. Bu lapashangligimiz uchun rahnamolarimiz bizni afv eturlarmi? G'ulom, Mash'al.

Afv etasiz-Kechirasiz (odatda so'zlovchi gap boshida olingan uzr so'rab ishlatiladi) [Saidbek] Afv etasiz , siz buni qayoadan bilasiz, general janoblari? K. Yashin, M. Rahmon, Sirdaryo.

Auditoriya- [lot. Auditorium-tinglash joyi]

1. Mashg'ulot, ma'ruza (doklad) va sh.k. O'tkaziladigan xona, bo'lma. Auditoriyada olingan bilim bilan cheklanmaslik kerak, albatta. Gazetadan.

2. Mashg'ulot, ma'ruza va sh.kni tinglovchilar shuningdek, radiotinglovchilar va teletomashabinlar.

Vojib-[zarur, kerakli, majburiy; majburiyat, burch]

1. din. Har bir musulmonga payg'ambar tomonidan buyurilgan, bajarilishi majburiy, zarur bo'lgan amal turi. Uch xil amal bordirki ular harbir mo'min zimmasiga vojibdir. "Fan va turmush".

2. s.t. Bajarilishi majburiy [Barnogul:] Amri podsho vojib hech kim tarki vojib qilolmaydi. "Orzugul" Biz do'konni yopish xususida amri farmon bergan edik. Yo bizning amrimiz senga vojib emasmu? S.Siyoyev, Avaz.

2.3. Imlo lug'atlar. Bu turdagi lug'atlarga kirgan so'z va iboralarning izohi ham, tarjimasi ham bo'lmaydi. Bunday lug'at so'zlarning yozilishini imlo qoidalarini o'z ichiga oladi. Tillardagi hamma so'zlarning yozilishini imlo qoidalariga mos kelmaydi. Bu turdagi lug'atlar istisno so'zlarning orfografiyasining aniqlashda ayniqsa qo'l keldi. Imlo lug'atlari hamma uchun birdek ahamiyatlidir.

Imlo lug'atlarining biz uchun ahamiyatli jihati shundaki so'zlarni to'g'ri talaffuz etishni o'rgatadi. Bunday lug'atlar, asosan praktik maqsadda tuziladi.

Imlo lug'atlarga misol tarzida quyidagilarni ko'rsatish mumkin. S.Ibrohimov, M.Rahmonovlarning 1956-yilda nashr etilgan "Imlo lug'ati"ni, S.Ibrohimov, E.Begmatov va A.Ahmedovlarning "fan" nashriyoti tomonidan 1976-yilda nashr etilgan "o'zbek tilining imlo lug'ati", Shavkat Rahmatullayev, Azim Hojiyevlarning "O'bek tilining imlo lug'ati" Toshkent 1995. To'lqin To'g'ayev, Gulbahor Tavaldiyeva, Muyassar Akromova, Karim Nazarovlarning "O'zbek tilining krill va lotin alifbolaridagi imlo lug'ati" (Toshkent 2004.) ni olib qaraydigan bo'lsak, ushbu lug'at kirillcha va lotincha o'zbek alifbolarida tuzilgan bo'lib, ayni bir so'z har ikki yozuv shaklida yonma-yon berildi.

Lug'at kirillcha –lotincha o'zbek yozuvi tamoyilida tuzilganligi sababli, so'zlar o'zbek kirill alifbosi tartibida ifoda etildi. Davlat tilini o'rganishning ahamiyati ortib borayotgan, shuningdek, o'zbek lotin alifbosiga o'tilayotgan hozirgi kunda bu hildagi lug'atlar juda zarur va

foydalanish uchun har jihatdan qulaydir. Xususan, yangi o'zbek alifbosi va takomlashgan imloda dastlab savod chiqarayotgan, ayniqsa, yangi alifbo tartibini, unda o'qish-yozishni hali muhta o'zlashtirmagan kishilarning o'zlariga ma'lum o'zbek kirill alifbosi tartibi bo'yicha ushbu lug'atdan o'zbek lotin alifbosidagi zarur so'zlarni tezroq topishlari va o'rganishlari oson kechadi.

Bunday lug'atdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad so'zlarning har ikki alifboda to'g'ri yozilishini ko'rsatish bilan birga yangi o'zbek yozuvida tezroq savod chiqarishga ko'maklashishdan iborat. Chunonchi, lug'atda so'zlarning kirill va lotin alifbolarida yozilib yonma-yon berilishi ko'rgazmalilik holatini kasb etadi. So'zlarni taqqoslash orqali o'quvchi kirill alifbosidagi harflar yangi alifboda qanday harflar bilan ifodalanishini bilib olishlari ta'limda yaxshi natija beradi. Muhimi, avvalgi va yangi imlo qoidalaridagi tovush va harf munosabatlarining (qaysi harf qaysi tovushni ko'rsatishining), umuman, har ikki imlo qoidalari mazmunining o'zaro uyg'un va farqli tomonlarini ushbu lug'at yordamida qiyoslab o'rganish imkoni tug'iladi.

Lug'atning kirill alifbosidagi qismi rus grafikasi asosida o'zbek yozuvining imlo qoidalariga (1956-yil 4-aprel), yangi alifbodagi qismi esa lotin grafikasi asosida o'zbek yozuvining asosiy imlo qoidalariga (1995-yil 24- avgust) mos holda tuzildi. Binobarin, so'zlarning har ikki alifboda yozilishi grafika jixatidangina emas, ayrim holatlarda avvalgi va yangi imlo qoidalari mazmuniga ko'ra ham farq qiladi. Masalan, **kirilchada : lotinchada:**

октябрь - oktabr

шовилламок - shovullamoq

нуктаи назар - nuqtai nazar

копдан коп - ko'pdan ko'p

соз боши - so'zboshi

бугдой ранг - bug'doyrang va hakazo.

Shu o'rinda lug'atimizning lotin alifbosidagi qismida ayrim so'zlarning yozilishi yangi alifbo asosidagi "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" ning bir o'rindagi nomukammal imlo qoidasiga muvofiq bo'lmaganini aytib o'tishni lozim topdik.

Tilimizda *shov*, *lov*, *gur* kabi so'zlar bir qatorda *viz*, *vish*, *vaq*, *vang*, *vag'*, *vosh* singari tarkibida v undoshi bo'lgan ko'plab taqlid so'zlar ham uchraydi. Ammo keyingi turkum so'zlarni "Asos va qo'shimchalar imlosi" qismidagi 37-qoidaning 1-bandiga asosan *vizullamoq*, *vishullamoq*, *vaqullamoq* va sh. k. Shaklida yozib bo'lmaydi. Lug'atda ushbu qoidada ko'zda tutilgan asl maqsad to'g'ri talqin etilib, tegishli o'rinlarda unga amal qilindi: *gur+ illa= gurulla*, *shuv+illa = shuvulla* kabi. Lekin *vish*, *var* va shu singari taqlid so'zlarga fe'l yasovchi *-illa* qo'shilganda asliga muvofiq yozildi: *vishillamoq*, *varillamoq* kabi.

Lug'atda birinchi galda hozirgi o'zbek adabiy tilida keng qo'llanilayotgan so'zlar kiritildi. So'z yasovchi qo'shimchalari soda, imlosi qiyin bo'lmagan yasama so'zlarni lug'atga kiritmaslikka harakat qildik. Ammo tub fe'llarning noaniq shakli bilan birga yozishda xatolikka yo'l qo'yish mumkin bo'lgan *kestirmoq, surishtirmoq, yuzlashtirmoq, zo'riqtirmoq, orttirmoq, bo'rttirmoq* kabi nisbat yasovchisiga ega ayrim fe'llar ham lug'atdan o'rin oldi.

Lug'atda talaffuzi o'xshash, aytilishi bir-biriga yaqin so'zlarning ma'nolari qavs ichida izohlab yozildi, masalan, *adib (yozuvchi)*, *adip (to'ning adipi)*, *asil (toza)*, *asl (tub)*, *jodi (asbob)*, *jodu (sehr)* kabi.

O'zbek adabiy tilida ikki xil yozilishi meyorlashgan so'zlar o'z o'rnida ketma-ket berildi, chunonchi: *nabira* yoki *nevara*, *masjid* yoki *machit* tarzida.

Lug'atdagi ba'zi so'zlarga qavs ichida izoh berildi: *alloy (o'simlik)*, *mucha (a'zo)*, *tabla (othona)*, *to'l (qo'zilash mavsumi)*, *uchmoh (jannat)* kabi.

O'zbek adabiy tilida *gohi* yoki *gohida*, *nahot* yoki *nahotki*, *doim* yoki *doimo* singari qisqa va to'liq tarkibda ishlatiladigan so'zlar lug'ata qavslar bilan *gohi(da)*, *nahot(ki)*, *doim(o)* tarzida berildi.

Ayrim juft so'zlarning yuklamalari bilan yozilishi ham qavs ichida ko'rsatildi, masalan: *yor-do'st (yoru do'st)*, *yer-ko'k (yeru ko'k)* kabi.

Tabiiyki, yuqorida keltirigan misollar lug'atning tuzilishiga muvofiq har ikkala yozuvda berildi.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi ona tili miz uchun ulkan taraqqiyot, rivojlanish, bitmas –tuganmas boy bisotini namoyish etish omili bo'ldi. Ayniqsa, mustaqillikka erishganimizdan keyin o'zbek tilining leksik qatlamida misli ko'rilmagan o'zgarishlar bo'ldi: “eskirgan so'z” tamg'asi bosilgan yuzlab leksikonlar o'z lisoniy maqomiga ega bo'ldi, xalq tili bisotida qolib ketayotgan ko'plab so'zlar yasaldi, fan –tehnika, tibbiyot, iqtisodiyot, huquq, sport va boshqa sohalarga oid talay yangi so'zlar tilimizga kirib keldi; ish yuritish o'zbek tiliga ko'chdi, Atamashunoslik qo'mitasi tashkil etilib, turli sohalarga doir faniy lug'atlar tayyorlandi...

Tilimiz taraqqiyoti bilan bog'liq ushbu o'zgarishlar, islohotlar imlo lug'atida o'z ifodasini topgan. Chunonchi, kundalik turmushda xalq shevalarida, badiiy asarlarda qo'llaniladigan, ammo adabiy tilda o'z o'rnini topa olmay yurgan ko'pgina so'zlar imlo lug'atiga kiritildi. Masalan: *saldam (inersiya)*, *birinj (bronza)*, *do'qqi (qo'pol)*, *sila (to'lar-to'lmas)*, *qo'qimoq (ivirsimoq)*, *pang'iz-lamoq (mog'or bosmoq)* v.b.

Lug'atdagi so'zlarning muayyan qismini fan-tehnika doir terminlar tashkil etadi. Ayniqsa, mustaqillikka erishganimizdan keyingi davrda tilimizga kirib kelgan bu sohalarga oid ko'plab yangi so'z-terminlar lug'atdan joy oldi, chunonchi: *fyuchers*, *ombudsman*, *sammit*, *bill*,

emansipatsiya, embargo, konvertatsiya, lizing, menejer, marketing, sanatsiya; printer, multimedia, peyjer va sh.k. Bu tarkib lug'atning ikkinchi nashrida yangi o'zlashmalar hisobiga yana ham ortdi.

“O'zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug'ati” ikki jildli “O'zbek tilining izohli lug'ati”, chop etilgan turli xarakterdagi lug'atlar, xususan, Sh.Rahmatullayev va A.Hojiyevlar tomonidan tuzilgan “O'zbek tilining imlo lug'ati” (1995), maktab darsliklari va davriy matbuotdan yig'ilgan so'zlar asosida tuzildi. Xalq og'zaki ijodi, xalq so'zlashuv tilidan, taniqli yo'zuvchi, shoir, jurnalist va olimlarimiz asarlaridan to'plangan so'zlar ham imlo lug'ati so'zligini boyitgan.

2.4. **Terminalogik lug'atlar** so'zligi ma'lum bir sohaga xos so'z –terminlardan iborat bo'ladi. Misol uchun O.U.Salimov, Z.S.Ibrohimov, P.R.Ismatullayev, A.S.Karimovlarning “Ruscha - O'zbekcha politexnika atamaları lug'ati”. Mazkur lug'atni tuzishda Toshkent Davlat texnika universiteti qoshidagi ayrim fakultet va kafedralarda tuzilgan maxsus atamalar lug'atlaridan, jumladan, mashinasozlik, elektrotexnika, energiya, geologiya, konchilik, neft, gez, radiotexnika va elejtronika ixtisosliklari uchun tayyorlangan lug'atlardan keng foydalanildi. Shuningdek, temir yo'l, to'qimachilik va yengil sanoat ixtisosliklarining talabalari uchun tayyorlangan “Ruscha – o'zbekcha atamalar lug'ati” ham nazarda tutildi.

Fan va texnika rivojlangani sari bu sohalarida yangi so'zlar va atamalar paydo bo'lishi tabiiydir: o'tgan davr ichida ko'p so'zlarning ma'nosi o'zgardi, ayrim so'zlarning ma'nosi ravonlashdi, ayrim so'zlar iste'moldan chiqib ketdi yoki boshqa atamalar bilan almashildi.

Natijada yangi atamalarni to'laroq o'zlashtirish hamda o'zbek tilida texnikaning turli sohalariga tegishli adabiyotlar nashr etishni ko'paytirish lozimligi olimlarimiz oldiga yangi “Ruscha-o'zbekcha politexnika atamaları lug'ati”ni tayyorlashdek masalani qo'ydi. Unda texnikaning deyerli barcha sohalariga oid va maxsus mutaxassisliklarga tegishli ruscha so'z va atamalarning tarjimasini berilgan. Lug'atda hozirgi zamon texnikasining turli sohalariga oid va shu sohalarida, matbuotda va so'zlashuv nutqida ko'p qo'llaniladigan ruscha va chet tillaridan ko'chib o'tgan va so'nggi yillarda o'zbek tilida o'zlashib ketgan hamda ba'zi bir o'zbekcha ekvivalenti topilmagan atamalarning asl matni saqlab qolindi.

Ba'zi ruscha – o'zbekcha atamalarning o'zbekcha ma'nosini to'liqroq ifodalash maqsadida asosiy atama bilan birga bitta yoki bir nechta sinonimlar kiritildi. Agar birorta ruscha atama tegishli sohalarida turli ma'noga ega bo'lsa, bunday atamalar tartib raqami bilan har –xil tarjima tarzida ko'rsatilgan. Masalan, a) ruscha “блок” so'zi uchun o'zbekchada:

1. blok; 2. chig'ir; 3.bo'lak, bo'linma; 4.to'siq kabi so'zlar olingan;

b) ruscha “база” so’zi o’zbekchada: 1. baza, asos, negiz; 2. yarim o’tkazgich asboblarda tranzistorning bir eliktrodi; 3. baza – o’qlar orasidagi masofa (avt); 4. baza –narsalar , ashyolar saqlanadigan ombor va h.k.

Agar ruscha atamaning o’zbekcha tarjimasini bir sohaga tegishli ikkita yoki bir necha sinonimlardan iborat bo’lsa, bu sinonimlar vergul bilan ajratiladi:

- 1) migratsiya –siljish, ko’chish;
- 2) dempfer –so’ndirgich, tinchlantirgich deb olindi.

Lug’atga yakka so’zli atamalar ko’pincha sifat va otdan iborat bo’lib, amalda ishlatilishiga qarab sifatdan yoki otdan boshlanishi mumkin. Masalan: *алгоритмический язык* – algoritmik til; *двигатель индукционный*-induksion yuritgich.

Lug’atda atamalar asosan birlik sonda berilgan, lekin ba’zi atamalar ko’plikda ham uchrashi mumkin. Masalan, izogirlar, izogonlar neftenlar va b.

Lug’atda ruscha so’z va atamalar rus alifbosi tartibida berilgan.

Lug’atga kirgan atamalarga izoh berilmadi, ammo ba’zi murakkab atamalarning tarjimalariga juda qisqa izoh tariqasida ko’rsatma berildi. Masalan,

1. Жиклер –jiklyor, meyoriy purkash tegishi;
2. Ионные связи –minerallarda elementlarning ion bog’lanishi;
3. Грузооборот –vaqt birligida tashilgan yuk miqdori va b.

Lug’atda qabul qilingan yangi yoki kam qo’llanadigan o’zbekcha atamalar dastlabki paytlarda ancha noqulay eshitilishi mumkin. Masalan, tizim, tuzilma, yuritgich. Lekin vaqt o’tishi bilan bunday atamalar o’zlashib ketadi, degan umiddamiz.

“Ruscha –o’zbekcha politexnika lug’atini” tuzishda Toshkent Davlat texnika universitetining bir qator professor va olimlari faol qatnashdilar. Texnikaning deyarli barcha sohalriga tegishli maxsus fanlarda qo’llanadigan va lug’atda qabul qilingan atamalarni shu sohalarda chuqur nazariy va amaliy bilimga ega bo’lgan olimlar ko’rib chiqdilar.

Lug’at asosan oliy texnika va o’rta maxsus o’quv yurtlari talabalari va o’qituvchilari, texnikaning turli sohalrida ishlovchi muhandis –texnik xodimlar, texnikaga oid adabiyotlarning tarjimonlari uchun mo’ljallangan.

Lug’atda ba’zi maxsus mutaxassisliklarga tegishli o’zbekcha atamalar fan va texnikaning qaysi sohasiga tegishliligini ko’rsatish maqsadida sohalr bo’yicha quyida keltirilgan qisqartmalar qabul qilindi.

Yana bir, X.V.Salimovning “Ekologiya va atrof –muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish bo’yicha atama va tushunchalarning izohli lug’ati”ni oladigan bo’lsak. Bu lig’atda umumiy va sanoat ekologiyasi, atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishga doir atama va tushunchalarni mujassamlagan. Lug’at mazmun jihatidan keng qamrovli bo’lib u oliy

o'quv yurtlarining Biologiya, Geografiya, Ekologiya va tabiatdan foydalanish, Hayot faoliyati xavsizligi, Metallurgiya sanoati xodimlari, o'qituvchilar, aspirantlar va o'z yashash muhitida hukm surayotgan ekologik qonunlar, keyingi paytlar biosferada sodir bo'layotgan o'zgarishlarning borishi haqida bilimlarni egallash yoki shunchaki o'zining lug'at boyligini oshirish istagida bo'lgan barcha kishilar foydalanish mumkin.

Lug'atning tuzilishi. Lug'at rus va o'zbek tillarida yozilgan bo'lib, undagi atama va tushunchalar o'zlarining ruscha talqiniga ko'ra alifbo tartibida joylashtirilgan. Unda qushlarning o'zbekcha nomlari tarjimai T.Zohidovdan (1957), o'simliklar nomlarining tarjimai esa asosan S.Sahobiddinovdan (1953) olingan. Lug'atda keltirilgan atama va tushunchalar bosh so'zlar (sarlavhalar) shaklida berilgan bo'lib, qoramteir harflar bilan ajratilgan. Bosh so'zdan keyin qavs ichida uning etimologiyasi (kelib chiqishi) xorij tilidagi so'z (etimon) bilan ifodalangan. Etimon sodda so'zdan iborat bo'lib, uni bir so'z bilan tarjima qilish mumkin bo'lsa, u holda uning tarjimai to'g'ridan-to'g'ri keltirilgan. Masalan, **Bakteriyalar-** (gr. Bakteriya –tayoqcha). Agar bosh so'z murakkab bo'lib, bir necha etimondan iborat bo'lsa, undan har bir etimon alohida tarjima qilinib bir-biriga ulanadi. Bu holda „ <“ belgisi“ ... dan kelib chiqqan“ ,, ... asosida degan ma'noni beradi. Masalan, **Fototrof bakteriyalar** (< gr. Photo -yorug'lik + trophe- ozuqa + bacteria-tayoqcha) xorijiy va o'zbek tillaridan olingan so'zlardan iborat ba'zi murakkab sarlavhalarining mazmuni keltirilganda qavs ichida yo faqatgina xorijiy etimon va uning ma'nosi (mas.**Biokimyoviy indikator** (< lot. Indicator- ko'rsatuvchi) yoki kursivda etimonning o'zi va o'zbekcha so'z (mas, **suv kadastri**(suv+ kadastru...) keltirilgan. Ikkinchi holatda etimonning ma'nosini matn bo'yicha oldinroqda qarashga to'g'ri keladi. Lug'atda ko'proq uchraydigan murakkab so'zlarning so'z hosil qiluvchi elementlari alohida lug'at atamasi sifatida berilgan. Ularni o'quvchi alfavit bo'yicha o'z o'rnida yoki alfavit bo'yicha joylashtirilgan murakkab bosh so'zlar tarkibida topadi(mas., Avto... (Auto...) gr autos-o'zim; **Avtotroflar** < autos... + gr. Trophe - ozuqa). Ayrim atamalarning tarjimai uning mazmuniga ko'ra keltirilgan. Bu holda atamaning mazmuni atamadan bevosita keyin qavs ichida berilgan (mas., Landschaft – nem. Landschaft (joyning umumiy ko'rinishi, manzara). Ba'zi hollarda atama va uning etimonidan qaysi sohaga tegishli akanligi ko'rsatilgan. Masalan, tog'- kon (konchilik sanoati), metall (matallurgiya sanoati). Lug'atdagi ba'zi atama va tushunchalar turlicha izohlangan bo'lib, bu ularning talqinida bir-biriga o'xshash yoki o'zaro mantiqan farqlanuvchi ma'no borligidan kelib chiqdi.

O'quvchining ekologik dunyoqarashini kengaytirish maqsadida lug'atning oxirida tabiat muhofazasi bilan shug'ullanuvchi yetakchi xalqoro tashkilotlar to'g'risida ba'zi malumotlar, atrof muhit muhofazasiga doir xalqaro konvensiya va bitimlar hamda tabiat muhofazasiga doir

O'zbekiston respublikasining qonunlari ro'yxati keltirilgan.

2.5. Sinonimlar lug'ati sinonimlardan iborat bo'ladi. Bunday lug'atlar faqat tillardagi sinonimik qatorlarni qayd etuvchi, ya'ni izohsiz yoki izohli bo'lishi mumkin. Izohsiz lug'atlarning qimmati kam bo'ladi. Chunki u sinonimlarning o'zlariga xos turli belgi-xususiyatlarni ochib bermaydi.

Sinonimlarni farqli xususiyatlarini to'g'ri anglagan holda ularning keraklisini tanlab qo'llash fikrning aniq maqsadga muvofiq ifodalashiga imkon beradi.

Bunga sinonimlarning izohli lug'ati mumkin xizmat qiladi. Sinonimlar lug'atlarida o'zaro sinonim bo'lgan so'zlar belgilanadi ularni birlashtiruvchi ma'no ko'rsatiladi va sinonimik qatordagihar bir so'z o'ziga xos belgi – xususiyatlari ochib beriladi. Bunga misol qilib quyidagi sinonim lug'atlarni keltiramiz.

Der kleine Duden der passende Ausdruck ein Synonymwörterbuch für die Wortwahl bearb.d.Dudenred.

Unsere Sprache stellt uns einen grossen Bestand an sinnverwandten Wörtern und Wendungen zur Verfügung. Wenn wir feiern wollen, dann können wir Z.B. sagen, dass wir "Ein Fest, eine Party geben" oder"- etwas zwanglosser - "eine Feste machen, in salopper Rede weise auch "eine Sause machen, ein Fass aufmachen auf den Putz hauen". Wollen wir einen Menschen charakterisieren, der Alkohol getrunken hat, dann haben wir die Möglichkeit, aus einer Fülle von Ausdrücken des passende Wort auszuwählen, Z.B. "angetrunken, angehutert, angesauselt, beschwipst, beschickert, benobelt, betutert " oder " betrunken, berauscht, bezecht, blau, besoffen" oder aber, volltrunken, stockbesoffen, zu". Welches Wort wir auswählen, ist nicht nur eine Frage der Bedeutung, des Wortinhalts sondern auch des Stils.

Wenn man beim Schreiben von Briefen beim Verfassen von Texten, bei der Ausarbeitung von Reden nicht auf das einer Situation angemessene Wort kommt oder

sich nicht im Ausdruck wiederholen mochte dann hilft dieses Synonymwörterbuch. Es bietet etwa 7500 Gruppen mit sinnverwandten Wörtern und Wendungen an, die die Wortwahl leichtmachen.

Z.B.

Abbildung - Bild, Darstellung, Ansicht, Illustration.

Aufmachen - aufschliessen, öffnen, aufsperrern (Landschaft), auf-tun, entriegeln.

Biographie - Memoiren, Autobiographie, Lebensgeschichte, Lebensbeschreibung, Lebensbild, Lebenserinnerungen, Erinnerungen, Denkwürdigkeiten, Lebenslauf, Vita, Werdegang.

Billig - preiswert, preisgünstig, kostengünstig, herabgesetzt, im Preis gesenkt, fast umsonst, geschenkt, preiswürdig, günstig, zu willigen Preisen, wohlfeil, Spottbillig.

Gesicht - Angesicht, Antlitz (Dichter), Physiognomie, Visage, (salopp abwertend), Fratze (salopp, oft abwertend) G[e]fries (südd., österr., salopp abwertend), Pönm, Fresse.

Traurig - trist, freudlos, elend kaput (Jargon), unglücklich, todunglücklich, kreuzunglücklich, betrubt, trübe, bedrückt, gedrückt, bekümmert, niefroh, mauserig (Schweiz).

Treffen – begegnen, stossenauf, antreffen, erreichen, vorfinden, zusammenkommen.

Übersetzen- übertragen, verdeutschen, verdolmetschen, dolmetschen.

Übersetzen – ans andere über bringen / fahren hinüberbringen, hinüberfahren, überfahren.

2.6. Frazeeologik lug'atlar. "Frazeeografiya" termini tilshunoslikda professor M.E.Umarxo'jev tomonidan o'tgan asrning 70-yillarida qo'llangan hamda uning birinchi bor 1971-yili Germaniyaning Leypsig shahrida chop etilgan maqolalarida frazeografiya terminiga shunday ta'rif berilgan: „frazeeologik lug'atlar tuzishning nazariy hamda amaliy masalalari bilan shug'ullanuvchi fanga frazeografiya deyiladi.¹

Atamaning qo'llanishi dastlabki yillarda ba'zi tilshunoslar tomonidan e'tirozga ham uchragan, hattoki qarshiliklar ham bo'lgan. Lekin biz tilning ham semantik, ham struktural jihatdan o'ziga xos mustaqil ikki xil birligini „leksikografiya“ termini ostida berishni lozim

¹ Каранг. Unter Phraseographie verstehen wir die Theorie und Praxis des Zusammenstellens der phraseographischen Wörterbücher und Nachschlagewörterbücher. M.Umarchodshajew. Bemerkungen zur phraseografischen Forschung in der UdSSR. Sprachpflege, 1971, № 4. S85. Ушбу атама грек тилидан frazis-фраза, grapho-ёзаман маъносида ишлатилади.

topmadik, chunki „leksikografiya“ termini barcha uchun ma’lum, u so’z bilan motivlashgan so’zga bog’langan. Frazeologizmlar esa, yuqorida ko’rganimizdek, so’z emas, balki frazadir.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, biz „frazeografiya“ termini leksikografiyaning frazeologik lug’atlar muammolari bilan shug’ullanuvchi mustaqil sohasini nomlash uchun qo’lladik. Lekin „vaqt oliy hakam“ deydilar. O’tgan qirq yildan ortiq vaqt mobaynida ushbu termin barcha tillar terminiga aylandi. Frazeografiya esa lug’at tuzishning mustaqil sohasi sifatida nazariy va amaliy tomondan asoslandi, uning bosib o’tgan tarixiy etaplari tahlil qilindi, qator tillarning frazeografik lug’atlari tiplari ajratildi, xullas frazeologik lug’atlar tuzish nazariyasi yaratildi.

Frazeografiyaning taraqqiyot bosqichlari (Entwicklungsperiode der Phraseographie)

Frazeografiyaning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini aniqlash masalasida imkoniyat darajasida olmon, ingliz, rus, fransuz, rumin, ispan, o’zbek, qirg’iz, tatar, turkman, azarbayjon, chuvash, chex, yapon, xitoy, fors, mog’ul, lezgin, komi, latish, eston, venger va qator boshqa tillar materiallari asosida chop etilgan 300 dan ortiq bir, ikki hamda ko’p bir, ikki hamda ko’p tilli frazeologik lug’atlar, maqol va matallar, xikmatli so’zlar to’plarini tahlil qilib chiqdik.¹ Olingan ma’lumotlar frazeografiya taraqqiyoti tarixini uch bosqichga bo’lishga asos bo’ldi.

Birinchi bosqich qadimda ilk bor qo’lyozma shaklida tuzilgan maqolar va turli iboralar to’plamlaridan to XIX asr boshlaridan XX asrning birinchi yarmini o’z ichiga oladi.

Birinchi bosqich fanlar rivojiga hamda yozuv paydo bo’lishi bilan chambarchas bog’liq. Yozuv xalqlarning asrlar davomida to’plagan va avloddan avlodga o’tib kelayotgan ma’naviy, lisoniy boyligini saqlab qolish imkoniyatini yaratdi.

“Тридно сказать,- deb yozadi V.P.Anikin,- с каких времён среди народов начали ходить пословицы-устные краткие изречения на самые разные темы. Неизвестно и время возникновения первых поговорок – метких изречений, которые способны в разговоре выразительно и точно охарактеризовать что- либо без помощи утомительных и сложнычпояснений возникли в отдалённой древности и с той поры сопутствуют народу на всем протяжении его истории”.¹

V.P.Anikin fikrlari to’lig’icha boshqa tillar uchun ham tegishlidir ba’zi ma’lumotlarga ko’ra ruhoniyy Notker Labeo (952-1022) lotin va olmon tillarining yuzga yaqin maqollarini to’plab, kitob shakliga keltirgan. O’rta asrlarga kelib Yevropa tillari materiallari asosida

¹ Каранг М.И.Умарходжаев. Основы фразеографии. Автореф.докт.дисс. М., 1981. Основы фразеографии. Монография.Т., 1983. А.М.Бушуй. О.Фразеографический концепции Мухтара Умарходжаева // Хорижий филология, Самарканд, 1 (30), 2009, с.8-20.

¹ Аникин В.П. Сопутствующее слово к «Словарю русских пословиц и поговорок». В кН. В.П.Жуков Словарь русских пословиц и поговорок. М., 1966, с.3.

“Apophtegmata”² nomi bilan qator to’plamlar yaratildi. Masalan, J.W.Zinuget, Der deutschen scharfsinnige kluge Sprüche. Apophtegmata genannt 1628, 1653 J.L.Widmen Deutscher Nation Apophtegmata 1644.

XVI asrdan boshlab yevropa tillarining ikki, ko’p tilli maqollar to’plamlari yuzaga kela boshladi. Masalan, J.Gluski. Proverbs A Comparative Book of English, French, German, Italien, Spain and Russian Proverbs with a Latin Appendix. Amsterdam (1515 — 1971 yili qayta nashr qilingan).

Sebastian Frank tomonidan 1541 yili (qayta nashri 1974, Amsterdam, Ulg’rix Maysar) tuzilgan to’plamda maqollar bilan bir qatorda sententslar, masallar, ertaklar, xattoki hazillar ham kiritilgan ekan. Bu to’plam olmon tilida o’sha davrda qo’llanilgan 7000 maqolni o’z ichiga olgan, ulardan ba’zilari u yoki bu formada xozirgi zamon olmon tilida saqlanib qolgan. Masalan, *verbranntes Kind forchts feur; Mit grossen herren ist nit gut kirschen essen; Kleider machen lent; Gleich ZM gleich gesselt sich gem; es ist noch nit aller tey abent.*

Yuqorida tilga olingan lug’atlarda bizning hozirgi tushunchamizdagi frazeologizmlar soni juda oz bo’lgan, frazeologik parametrlil lug’at sifatida ular to’la shakllanmagan. Shuning uchun frazeografiya rivojining ushbu bosqichini «Paremiotrafiya» bosqichi deyilsa, to’g’ri bo’lar edi.

Ikkinchi bosqich. Ikkinchi bosqichda ham turli maqol va matallarga boy to’plamlar chop etilish an’anasi davom etgan. Lekin birinchi bosqichdan farqli o’laroq lug’atlarga endi idiomalar, juft so’zlar, komparativ frazeologizmlar, hikmatli so’zlar kiritilib, ularning lingvistik parametrlari izohlangan, hattoki stilistik belgilari berila boshlagan. Bunday lug’atlarga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin: Korte V. Sprichwörter und sprichwortliche Redensarten des Deutschen. Leipzig, 1837; J.Eislein. Die Sprichwörter und Sinnreden des deutschen Volkes in aller und neuer Zeit. Zum ersten Male aus den Quellen geschöpft, erläutert und mit Einleitung Verstanden. Freiburg, 1840 u.a.

1867—1880 yillari Vander tomonidan besh tomli olmon va boshqa tillar maqollarini o’z ichiga olgan juda katta hajmdagi *Deutsches "Sprichwörterlexikon"* to’plami chop etilgan. Kiritilgan birliklar sonining ko’pligi jihatidan hozirgi kunda ham bu lug’atga teng keladigani yuq desa ham bo’ladi. Masalan, faqatgina Auge bosh so’zi misolida 445 maqol, matal, turli turg’un so’z birikmalari keltiriladi.

Ushbu lug’atga o’xshash yana bir to’plam Berlinda 1907 yili chop etilgan. Lippenxaydening *"Sprichwörterbuch"* tuplamida 30000 birikma bo’lib, undan 25000 birikma olmon tiliga taalluqli, 5000 birikma chet tillar iboralaridir.

² Apophtegmata: Ausspruch, Orakelspruch, jede kluge, witzige, sentenzartige Rede oder Antwort, Gedankensprache. Franz Passow. Handwörterbuch der grichischen Sprache. Leipzig. 1841, S.368.

Ushbu o'rinda rus lug'atshunoslaridan V.I.Dalning «Пословицы русского народа» lug'ati (M., 1862) hamda M.I.Mixelhsonning ikki tomlik «Ходячие и меткие слова», «Русская мысль и речь. Свое и чужое. Опыт русской фразеологии» nomli fundamental lug'atlari diqqatga sazovordir.

Bu lug'atlar boshqa lug'atlardan birinchi navbatda ilmiy asoslanganligi bilan farq qilib, rus xalqining noyob lingvistik boyligiga aylanib ulgurgan.

Ushbu bosqichning xarakterli xususiyatlaridan yana biri frazeologik lug'atlar tiplarining ko'payishi bilan belgilanadi. Alohida lug'at tipi sifatida «Hikmatli so'zlar» lug'ati shakllandi. Taniqli lingvist G.Byuxmann tomonidan ilk bor 3700 hikmatli so'zlar (gefUgelte Worte)im o'z ichiga olgan lug'at chop etildi hamda qayta-qayta chop etildi. Bu lug'at ta'sirida boshqa tillarda ham shu kabi lug'atlar paydo bo'la boshladi. Masalan, 1890 yili rus tili materiallari asosida С.В.Максимов «Крылатые слова» to'plami, Germaniyada A.Fried "Lexikon deutscher Zitate" (1888, Leipzig), Zoomann "Zitatenschatz der Weltliteratur" (1910, Leipzig) lug'atlarini chop etdilar.

Yu.Borxardtning "Sprichwortliche Redensarten im deutschen Volksmunde" (1888, 1894), Arixterning "Deutsche Redensarten (1894), U.Shrederning "Der Bilderschmuck der deutschen Sprache in tausenden volkstümlicher Redensarten (1894), С.Берелнинг "Wie der Deutsche spricht. Phraseologie volkstümlicher Sprache (1896) kabi lug'atlari chop etilishi bilan olmon tili frazeologik lug'atlari to'la shakllana boshladi, frazeologik ma'nolar, ularning etimologiyasi, qo'llanish xususiyatlari ochib berildi.

Bundan keyingi davrlarda ikki va ko'p tilli frazeologik lug'atlar adadi ortib bordi, bular orasida mashhur esperanto tili muallifi M.F.Zamengofning «Словар сравнительной русско—французко—немецкой фразеологии» (Varshava, 1875) lug'ati ehtiborga molikdir. Augatda ko'p tilli frazeologik lug'atlarning tillarni o'rganishdagi ahamiyatigina emas, balki xalqlarning milliy xarakteri va ruhiyati bilan tanishib borishdagi roli takidlanadi.

Uchinchi bosqich. Frazeografiyaning uchinchi bosqichi chop etilgan lug'atlar soni hamda sifati nuqtai nazaridan avvalgi ikki bosqichdan tubdan farq qiladi. XX asrning 50 — yillaridan so'ng chet tillarni o'qitish keng yo'lga qo'yila boshladi. Yangi tipdagi darsliklar, qo'llanmalar bilan bir qatorda turli tipdagi lug'atlarga ehtiyoj ortdi. Shu sababli ham nazariy frazeografiyaning keng ko'lamdagi rivoji amaliy frazeografiya rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi, maqsad va vazifasi, iboralar adadi va sifat ko'rsatkichlari nisbatan ilmiy asoslangan bir, ikki hamda ko'p tilli frazeologik lug'atlar chop etila boshladi.

1955 yili taniqli frazeolog A.V.Kuninning «Anglo — ruskiy frazeologicheskiy slovarg'», L.E.Binovichning 1956 yili nashr qilingan «Nemetsko-ruskiy frazeologicheskiy slovrg'», M.I.Retskerning 1963 yilda chop etilgan «Frantsuzsko —ruskiy frazeologicheskiy slovarg'»

lug'atlarining paydo bulishi bilan frazeologik lug'atlar boshqa lug'atlar orasida o'z qonuniy o'rniga ega bo'ldi. Ushbu lug'atlar ta'sirida boshqa tillarning ikki va ko'p tilli frazeologik lug'atlari yuzaga keldi. Ayniqsa AV.Kuninning 1967 yili qayta nashr qilingan «англо — русский фразеологический словарь» ta'sirida frazeologiyaning nazariy masalalari bilan bir qatorda frazeografiyaning amaliy tomonlari ham takomillashib bordi. Yuqoridagi lug'atlardagi frazeologizmlar soni ham boshqa lug'atlardan sezilarli darajada farq qiladi. L.E.Binovich lug'atida 12000 birlik bo'lsa, A.V.Kunin lug'atida 25000, M.Retsker lug'atida esa 35000 frazeologik birikmalar berilgan.

Bir qator tillarning izohli frazeologik lug'atlari yuzaga kelishi bilan frazeologik lug'at tiplari shakllanishi uzil kesil hal qilindi. Masalan, M.Fozilovning «Tojik tilining izohli frazeologik lug'ati» (Dushanba, 1963—1964), Sh.Raedmatullaevning «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati» (T., 1978), L.I.Molotkovning «Фразеологический словарь русского языка» (M., 1967).

V.Friderixning "Moderne deutsche Idiomatik" (Miinchen, 1966), L.Ryorixning "Lexicon der sprichwortlicher Redensarten" (Freiburg, Basel, Wieri, 1974) kabi lug'atlarning chop etilishi esa olmon tili frazeografiyasini yangi pog'onaga olib chiqdi.

Aksariyat lug'atlarda frazeologizmlarga berilgan barcha lingvistik xarakteristikalar turli, ilmiy asoslangan, amaliy jihatdan katta ma'lumotlarga ega. Zamonaviy frazeografiyaning rivojiga o'quv paremiografiyasi hamda o'quv frazeografiyasi sozdasida chop etilyotgan qator lug'atlar katta ta'sir ko'rsatmoqda. Bular sirasiga quyidagi lug'atlarni kiritish mumkin: "Kurzes Russisch — Deutsches phraseologisches Worterbuch" (1967),

M.Shanskiy, E.Avistrova, T.Aliqulovlarning «Rus tilidagi 700 frazeologik ibora» (T.,1982), M.E.Umarxo'jaev, K.N. Nazarovlarning «Olmoncha —ruscha —o'zbekcha frazeologik lug'at» (T., 1994).

Xozirgi zamon frazeografiyasi jalb etilayotgan tillar soni, frazeologizmlarning lingvistik parametrlari berilishi, lingvo-didaktik maqsad va vazifalarni hal qilish nuqtai nazaridan yangi sifat bosqichiga ko'tarilmoqda¹.

Frazeologik lug'atlar tipologiyasi.

Leksik lug'atlarning umumtipologiyasidan kelib chiqqan holda frazeologik lug'atlar tipologiyasida quyidagi faktorlarni ehtiborda tutish lozim²:

1. Lug'atning sosiolingvistik xamda psixolingvistik parametrlari: lug'atning ko'zda tutgan maqsadi, o'quvchilarning qanday kategoriyasiga mo'ljallanganligi, ularning sotsiopsixologik xususiyatlari qay darajada xisobga olinganligi.

¹ Фразеографиянинг босқичларини тўла таҳлили билан М.Э.Умархўжаевнинг “Основы фразеологии” монографияси. Т., 1983, 41-62-бетларда танишиш мумкин.

² П.Н.Денисов. Типология учебных словарей. В.к.н.: Проблемы учебной лексикографии. М., 1977 с 42.

2. Lug'ataing lingvistik parametrlari: unda frazeologik sistemaning qay darajada aks etganligi (aspekt, kompleks yoki universal lug'at).
3. Lug'atning semiotik parametrlari: frazaning, lug'at maqolasining strukturasi (definitsiya, sinonimlar, antonimlar, illyustratsiyalar, lug'atning ma'lumot berish parametrlari).

Frazeologik lug'at tiplari yuqorida ko'rsatilgan koordinatlar hamda sistem aloqalarning o'zaro bog'liqligi asosida quyidagi parametrlar bilan belgilanadi:

- a) lug'atning maqsadi, ya'ni kim uchun tuzilganligi
- b) qamrab olingan material xajmi
- v) kiritilgan materialning xarakteri
- g) qamrab olingan tillar soni
- d) materialning joylashuvi, ya'ni kimga qaratilganligi

1. Tuzilish maqsadiga ko'ra lug'atlar quyidagicha ajratiladi:

- a) ona tilida gapiruvchi barcha uchun mo'ljallangan umumiy lug'atlar
- b) chet tilida gapiruvchilar uchun tuzilgan umumiy lug'atlar
- v) maxsus lug'atlar — ona tili o'rganuvchi talabalar uchun, chet tili o'rganuvchi talabalar uchun tuzilgan o'quv lug'atlari

2. Lug'atda qamrab olingan material xajmi bo'yicha:

- a) 100 birikmadan tortib 1000 tagacha birikmalar kiritilgan kichik xajmli lug'atlar
- b) 1000 dan 5000 gacha. birikmalar kiritilgan lug'atlar
- v) 5000 dan 35000 gacha birikmalar kiritilgan lug'atlar

3. Lug'atga kiritilgan frazeologik materialning xarakteriga ko'ra:

- a) differentsiatsiyalangan turli turg'un birikmalar kiritilgan frazeologik lug'atlar
- b) V.V.Vinogradov klassifikatsiyasi bo'yicha barcha frazeologizmlar kiritilgan lug'atlar
- v) faqat so'z birikmasi strukturasi ega bo'lgan frazeologizmlar kiritilgan lug'atlar
- g) maqol va matallar to'plamlari
- d) hikmatli so'zlar lug'atlari

4. Qamrab olingan tillar soniga ko'ra:

- a) bir tilli frazeologik lug'atlar
- b) ikki tilli frazeologik lug'atlar
- v) ko'p tilli frazeologik lug'atlar

5. Frazeologik materialning joylashuvi, ya'ni kimga qaratilganligiga ko'ra:

- a) alfavit tartibida tuzilgan frazeologik lug'atlar
- b) ideografik (tematik) tartibda tuzilgan frazeologik lug'atlar

Alfavit tartibida lug'at maqolalari iboraning birinchi komponenti asosida, asos so'z bo'yicha, asos so'z konstant elementa bo'yicha joylashtiriladi.

Ideografik frazeologik lug'atlar tuzish bo'yicha hozircha tajribalarimiz juda kam. Bu borada ilmiy ish olib borayotgan Dmitriy Dobrovolg'skiyning "Kognitive Aspekte der Idiom - Semantik. Studien zum Thesaurus deutscher Idiome" (Tubingen, 1995) monografiyasini tilga olib o'tish lozim.

Yuqoridagi tasniflardan tashqari frazeologiyaning turli aspektlari asosida tuzilgan lug'atlar xam mavjud — frazeologik: sinonimlar, antonimlar, dialektizmlar va boshqa aspektlar bo'yicha tuzilgan lug'atlar chop etilgan.

Xullas, frazeologik lug'at tuzish jarayonida tuzuvchilar bir qator masalalarni hal etishlari zarur. Izohli frazeologik lug'at tuzishda eng jiddiy va nozik masalalardan biri izoh berish turlari bo'lsa, ikki tilli lug'at tuzishda tarjima qilish masalasi birinchi o'rinda turadigan muammodir. Bu ikki masala til o'rganishda katta ahamiyatga ega ekanligini xisobga olib, quyida bu haqda alohida to'xtalib o'tish lozim topildi.

Leksikografiya hamda frazeografiya an'analaridan kelib chiqqan holda lug'atlarda quyidagi definitsiya turlaridan foydalaniladi:

- a) analitik definitsiya (izoh), ya'ni berilgan frazeologik ma'noni izohlab ochib berish
- b) sinonimik leksemalar vositasidagi definitsiya (izoh)
- v) kombinatsiyalashgan tarjima vositasida definitsiya (izoh)
- g) sharxlash orkali definitsiya (izoh)

Analitik definitsiya imkon darajasida qisqa, lo'nda qilib frazeologizmning asosiy xususiyatlarini ochib berishi kerak. Masalan, sich die Finger verbrennen = 1. schaden erleiden

2. scharf kritisiert, abgelehnt werden

mit einem Affen nach Hause kommen = 1. betrunken nach Hause

kommen

dami ichida qolmoq = biror so'z ayta olmay qolmoq; ter to'kmoq = mashaqqatli jismoniy mehnat qilmoq va b.

Bir so'z yordamida izoh berish. Ba'zi frazeologizmlarning ma'nolari tilda mavjud bo'lgan sinonim so'zlar yordamida ham izohlanishi mumkin. Lekin ta'kidlash lozimki, alohida olingan ma'noni so'z frazeologik ma'noni to'la izoxlashi mushkul. Shunga qaramasdan iboraning asosiy ma'nosini ochishda ba'zan ushbu usuldan ham foydalanish mumkin. Masalan,

Die Augen schlieBen — sterben

In den Hafen der Ehe einlanden — heiraten

Kein Aas — niemand

Blaue Junge — junger Matrose

qo'ling o'rgilsin - ajoyib

bir yostiqqa bosh qo'ymok - uylanmoq

yaxshi ko'rmoq-sevmoq

Kombinatsiyalashgan tarjima vositasida definitsiya. Ba'zan frazeologik ibora ma'nosi murakkabligi tufayli yuqorida qo'llanilgan usullar bilan ochib berish qiyin kechadi, shuning uchun barcha usullarni birgalikda qo'llagan holda ibora ma'nosi izohlanishi mumkin. Masalan,

Kohldampf schieben — anhaltend Hunger leiden, hungern

j — m einen Korb geben — für ein Heiratsantrag, Angebot

Ablehnung geben, abweisen

Dumi xurjunda — o'lda —jo'lda, to'mtoq, chala

Ko'zga tashlanmoq — ro'y —rost, aniq ko'rinmoq, sezilmoq.

Ba'zi frazeologizmlar ma'molarini yuqoridagi usullar bilan definitsiya qilish mushkul. Bunday holda frazeologik ma'no sharqlanadi (kommentariy beriladi). Sharq ma'noni ochish usuli bo'lmay, obyekt xaqida, uning ma'lum xususiyatlari haqida xabar beradi. Masalan, ein unsicherer Kantonist = ein Mensch, auf den man sich

nicht verlassen kann guter Kerl = gutmutiger Mensch

(bes. Mädchen), der

niemandem etwas zuleidet tut, der lieber selbst leidet

tegirmonga tushsa butun chiqadi = har qanday qiyin sharoitdan ham qutulib qoladigan odam.

Ushbu uslubni qo'llash mobaynida «aytiladi», «ishlatiladi», «javoban» kabi so'zlar birga ishlatiladi.

Masalan, ich kann die Armele auYschüppen (hochkrepeln) = versichert derjenige, der selbst mit zupacken will, weil er keine Arbeit scheut.

Yelkamning chuquri ko'rsin = avval borgan joyiga qayta bormaslik maqsadida usha joyga nisbatan bu ibora ishlatiladi.

Yer yorilmadi, yerga kirmadim = g'oyat qattiq uyalgan, mulzam bo'lgan odam tilidan aytiladi.

Undov frazeologizmlar ma'mosini ochish o'ziga xos mushkullik tug'diradi. Ularga izoh berish modellaridan biri ma'moni frazeologizm ifodalagan *tuyg'u* nomi bilan izohlashdir. Masalan,

Da brat mir einer einen Storch! = Aufruf der Verwunderung

Mein lieber Mann! = Aufruf der Verwunderung

Pfsie, Deiwol! = Aufruf eines Hasses

Voy sho'rim! = afsuslanish, achchiqanishni ifodalaydi.

Bo'yning tagingda qolsin! = g'arg'ish iborasi

Jonim qoqindiq! = erkalatish iborasi

Frazeologik iboralar ma'molarini, stilistik xususiyatlarini to'laqonli izohlash uchun boshqa bir qator yordamchi vositalardan ham foydalaniladi. Buning uchun grammatik xarakteristika, qo'llanish ko'lamini ko'rsatish maqsadida turli manbalardan olingan illyustrativ misollar va tarixiy-etimologik ma'lumotlar berish bilan bir qatorda zamonaviy poligrafik vositalardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ikki tili frazeologik lug'atning asosiy printsiplaridan biri iboralarni tarjima qilish muammosidir. Ushbu muammoning qay darajada amalga oshirilishi lug'at qiymati va sifatini belgilaydi.

Tarjima lug'atlar tuzish jarayonida asosan ikki til birliklari o'rtasidagi ekvivalentlik munosabatlari o'rnatish masalasi yotadi. Ushbu ekvivalent munosabatlar asosan turli til vakillari mantiqiy tushuncha sistemalarining umumiylikiga asoslanadi, yapg'ni xalqlarining kaysi hududda istiqomat qilishidan qathiy nazar, dunyoni idrok qilishdagi mantiliy tushunchalari birxil. Ushbu falsafiy tamoyil bir til elementlari bilan ikkinchi til elementlari o'rtasida ekvivalent munosabatlar o'rnatish mumkinligini asoslaydi.

Ikki tili frazeologik lug'at tuzish jarayonida quyidagi ekvivalent munosabatlar o'rnatish printsiplaridan foydalanish mumkin:

1. Olmon tilidagi frazeologik ibora o'zbek tiliga to'liq ekvivalent orqali tarjima qilinadi. Buni quyidagi simvollar vositasida ifodalaymiz:

L1 (olmon tili) L2 (o'zbek tili)

$A+B \neq AB = A+B \neq AB$

Bunda $(A+B \neq AB)$ har qanday strukturaga ega bo'lgan frazeologizmlarning ramziy belgisi).

Masalan, quyidagi iboralarning shakli ham, ma'mosi ham to'la mos tushmoqda:

keine Rose ohne Dornen — gul tikonsiz bo'lmas

die chinesische Mauer — Xitoy devori

Freund und Feind — do'st va dushman

Schlau wie ein Fuchs — tulkiday ayyor

Die Augen schlieBen — ko'z yummoq

j — s rechte Hand sein — kimningdir o'ng qo'li bo'lmoq

die Achseln zucken — elka qismok;

Zeit ist Geld — vaqt — pul

2. Qisman ekvivalent iboralar orqali tarjima qilish printsipi. Bunda frazeologizmlar shaklida ba'zi o'zgarishlarga qaramasdan, ma'mo ekvivalentdir.

L1

L2

$A+B \neq AB = A+C \neq AC$

j-m Sand in die Augen streuen — kimningdir kuziga cho'p tiqmoq

den Kopf zerbrechen — bosh qotirmoq

leere Worte — quruq gap

j — n auf Handen tragen — kimnidir boshida ko'tarib yurmoq

nach j — s Pfeife tanzen — kimningdir nog'orasiga o'ynamoq

wie die Saat, so die Ernte — nima eksang, shuni o'rasan

es fiel ein Stein vom Herzen — elkamdan tog' tushganday bo'ldi

3. Analoglar orqali tarjima qilish printsiipi. Yuqoridagi uslublardan foydalanish imkoniyati mushkul bo'lib qolgan vaqtda tillardagi o'xshash iboralarni jalb qilish orqali tarjima qilish mumkin.

LI L2

$$A+B = AB \approx C+D \neq CD$$

Ushbu iboralarda turli shakl bo'lishiga qaramay, ekvivalent ma'no kuzatiladi.

von A bis Z — boshdan oyoq

es ist ein Katzensprung — bir qadam

viele Koche verderben den Brei — qo'ychivon ko'p bo'lsa qo'y xarom o'ladi

Schuster ohne Schuhe — bo'zchi belboqqa yolchimas

Öl ins Wasser gieBen — yaraga tuz sepmoq

4. XULOSA

Lug'atlarning muayyan xalq manaviyati va milliy madaniyatida muhim o'rin egallashi isbot talab qilmaydigan holatdir. Ularda jamiyatning rna'lum davrda erishgan bilinilari aks etadi. Lug'atlar ma'lum ijtimoiy vazifalar bajarishi, jumladan, o'quvchiga muayyan hodisa yolci hola^haqida ma'lumot berishi, uni o'z va o'zga tillardagi so'zlar bilan tanishtirishi, tilni, uning lug'at tarkibini takomillashtirish va tartibga solishga yordam berishi bilan katta ahamiyatga ega bo'lib, doimo zamonaga hamnafas tarzda mukammalashiG borishi zarur. Biroq lug'atlar qanchalik zamonaviy, mukammal bo'lmasin, davrdan ma'lum darajada orqada qolib, so'zlar hamda ular ifodalagan narsa va hodisalar o'rtasidagi u yoki bu o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan yangicha munosabatlarni kechikib qayd etadilar. Bu tushunadi va tabiiy hol.

Har qanday milliy tilning asosiy so'z boyligini, shu tilning tarixan rivojlanishi hamda muayyan lug'atni yaratish chog'idagi turg'un holatini lisoniy tizim va nutqiy faoliyat birligida ifoda qiluvchi katta hajmli filologik lug'atlar ulkan madaniy ahamiyatga molilc ishlar sifatida baholanishga loyiqdir. Shu bilan birga, ularni keng kitobxonlar qo'lidan tushmay, har doim faol qo'llanish muddati esa, abadiy cmas. Chunki tilning eng harakatchan qismi bo'lgan leksikada, hatto sho'ro davrida, turg'unlik yillarida ham, bir tomondan, so'zlarning eskirishi, ikkinchi tomondan, ularning yangilanishiga olib keluvchi jarayonlar to'xtab qolgani yo'q. Ayni holat, ayni jarayonlarni zamonaviy o'zbek leksikografiyasi tarixida ham kuzatishimiz mumkin.

Yangi takomillashuv bosqichiga o'tishda ungacha bosib o'tilgan yo'lga baho berish zunjrati bo'ladigan bo'lsa, aytilish mumkinki, hozirgi o'zbek lug'atchiligining etuklik davri 20-asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. 50- yillarda katta ruscha-o'zbekcha lug'atlarning birinchi avlodi - besh jildli (Toshkent, 1950-1955) va bir jildli (Moskva, 1954) lug'atlar tuzilib nashr etildi. Keyinroq dastlabki katta "O'zbekcha-ruscha lug'at" nashrclan chiqdi (Moskva, 1959). O'ttiz yildan so'ng ikki tilli katta. lug'atlarning dastlabki avlodi o'rniga yangilari - ikki jildli "Ruscha-o'zbekcha lug'at"(Toshkent,1 983-1984), bir jildli "O'zbekcha-ruscha lug'at" (Toshkent, 1988) nashr etildi. Ushbu lug'atlar O'zR FA Til va adabiyot instituti olimlari tomonidan yaratilgan edi.

60-70- yillarda o'zbek xalqining asosiy lug'ati - ikki jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" (Moskva, 1981) ustida jiddiy ish olib borildi. 90- yillar o'rtalarida esa Institut lug'atchilari o'zbek tilining ko'n jildli izohli lug'atini yaratish yo'lida ish olib bordilar va nashr qildilar. Izohli' lug'at lug'atlarning eng muhimidir, u adabiy tilning ulg'ayganini va jamiyatning lisoniy etukligini ifodalaydi¹.

¹ Будалгов Р.А. Тольковые словари в национальной культуры народов. Москва., 1989.

Yuqorida aytilganidek, har qanday tilning rivojlanishida uning leksikasi tez, sezilarli va jiddiy o'zgarishlarga uchraydi. Leksikadagi taraqqiyot yangi lug'aviy birliklarning paydo bo'lishi, ma'lum lug'aviy birliklarning iste'moldan chiqishi, so'zlarning yangi ma'no kasb etishi va ayrim ma'nolarning yo'qolishi kabi hodisalar bilan xarakterlanadi. Ana shunday o'zgarishlar ma'lum darajaga etgach, ularni nazariy va amaliy jihatdan aks ettiruvchi ishlarga ehtiyoj tug'iladi. Amaldagi "O'zbek tilining izohli lug'ati" ham xuddi shunday ehtiyoj, talab tufayli juda katta mehnat evaziga yuzaga kelgan va u ma'lum vaqtga qadar (aytish mumkinki, O'zbekiston mustaqillikka erishguncha, 90- yillar o'rtalarigacha) o'z vazifasini o'tab keldi. Lekin bu lug'at ma'lum sabablarga ko'ra, xususan, lug'atga so'z tanlashdan boshlab, so'z ma'nolarini belgilash, qayd etish, izohlash masalalarida bir qator kamchiliklarga egaligi, o'tgan asrning 70-yillaridan shu vaqtga qadar o'zbek tili leksikasida ro'y bergan katta o'zgarishlarni o'zida aks ettirmaganligi, eng asosiysi - hozirgi davrimizga, respublikaning mustaqillik holatiga mos, muvofiq kelmaydigan siyosiy, mavkuraviy qarashlarni muayyan darajada ifodalanganligi tufayli, hozirgi kun talablariga javob bera olmay qoldi. Xususan, o'zbek tilining bebaho mulki bo'lgan, hayotda bekmu ko'st xizmat qilayotgan juda ko'n so'zlar sho'ro davrida "diniy", "eskirgan" kabi tamg'alar bilan tazyiqqa uchradi, iste'moldan chiqarildi, ularning o'rnini "ruscha-baynalminal so'zlar" egalladi. Bunday munosabat amaldagi izohli lug'at materiallarida ham o'z aksini tongan edi: lug'atda iqtisodiyot so'zini "eskirgan" deb, ekonoinika so'zining asosiy so'z sifatida berilishi, ma'naviyat so'zining umuman berilmaganligi, ko'nlab so'zlar izohlarining sho'ro maikurasiga moslashtirilganligi buning yaqqol dalilidir.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishuvi bilan til siyosatida jiddiy o'zgarish yuz berib, o'zbek tilining taraqqiyot yo'lida yangi davr boshlandi. Respublikamiz hayotining barcha sohalarida ro'y bergan katta o'zgarishlar, rivojlangan juda ko'n mamlakatlar bilan aloqalarning tobora kuchayib borayotganligi qisqa vaqt ichida o'zbek tili, xususan, uning leksikasi rivojiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Masalan, bozor iqtisodiyoti, yangicha iqtisodiy siyosat tizimidagi avizo, audit, auditor, broker, diler, konsalting, lizing, menejer, menejment, monitoring kabi; fan va texnikaga oid yangi tushunchalarni ifodalovchi disntey, internet, monitor, nrinter, sayt, skaner, fayl singari bir qancha so'zlarning keng qo'llana boshlashi, vazir, nosbon, hokim, mirshab, domla, mudarris kabi so'zlarning yangicha ma'no kasb etishi, o'zbek snortining rivojlanishi tufayli kurash, yonbosh, chala, halol kabi so'zlarning yangi ma'nolarga ega bo'lishi, yuzlab diniy-tasavvufiy va falsafiy atamalarning iste'molga kirib kelishi ayni shu ijodiy ta'sir natijasidir.

Hozirgi davrda lug'atlarning elektron variantlari ham yaratilmoqdaki, ular bilan ishlash ancha qulayliklarni keltirib chiqaradi. Kerakli so'zni tonish vaqti tejaladi, tarjima qilish esa

osonlashadi. Lug'atlarni yaratish jarayoni qanchalik mashaqqatli bo'lmasin, lining natijasi shuncha ahamiyatli bo'ladi.

Hozirgi yoshlarimizning asosiy vazifasi - zamon talabiga mos, elektron lug'atlardan foydalanishni mukammal o'rganib olish hamda o'zbek tilining izohli lug'atining elektron variantlarini tayyorlash. Kompyuter savodxonligiga ega bo'lgan yoshlar dasturlash kasbiga ega bo'lsa, tilimiz boyligini bema'lol ko'rsata olishi mumkin.

1. So'zlarning ma'lum maqsad bilan to'plangan, tartibga solingan kitob yoki boshqa shakldagi to'plami lug'at deyiladi.
2. Ko'zlangan maqsad jihatidan lug'atlar ikki hil bo'ladi: ensiklopedik lug'atlar, lingvistik lug'atlar. Ensiklopedik lug'atlarda fan, texnika va madaniyatning barcha sohalariga oid tushunchalar izohlanadi. Ensiklopedik lug'atlar Sharqda "Qomus", G'arbda esa "thesaurus" deb ham yuritiladi.
3. Lingvistik lug'atlarda lug'at boyligi aks ettiriladi. Bunday lug'ati asosiy maqsad leksema va frazeomalarning semantik mazmunini tavsiflashdir.
4. So'zning biror sohaga oid leksika bilan chegaralanganligi va chegaralanmaganligiga ko'ra lug'atlar ikkiga bo'linadi: umumiy lug'atlar; maxsus lug'atlar.
5. Umumiy lingvistik lug'atlarda hamma qo'llaydigan so'zlarning xarakteristikasi beriladi.
6. Bular bir tilli, ikki tilli, ko'p tilli bo'ladli. Bir tilli lug'atlarning ham umumiy va maxsus tiplari bor. Masalan: izohli lug'at, imlo lug'ati, sinonimlar lug'ati, frazeologik lug'at, dialektal lug'at maxsus lug'atlar tipiga kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov. I. A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent.: Sharq, 1999. 182 bet.
2. Karimov I. A.. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent.: Ma'naviyat, 2009.173 bet.
3. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyatli mutaxassislar- taraqqiyot omili. Toshkent.: O'zbekiston, 1995
4. Karimov. I. A. Yangicha ishlash va fikrlash davr talabi. Toshkent O'zbekiston, 1997
5. Karimov. I. A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent.: Sharq, 1998. 62 bet
6. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Sharq Oliy ta'lim meyoriy hujjatlar to'plami,1997. 30 bet
7. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni. Toshkent.: Sharq, 1997. 10 bet
8. Umarxo'jaev. M. E. Umumiy tilshunoslik. Andijon, 2010
9. Umarxo'jaev M. E. Olmon tili leksikologiyasi va frazeologiyasi Andijon, 2010. 152 bet.
10. Умарходжаев М.Э. Рухни тарбияланган таржима. «Ёзувчи». 1997, 12.04.
11. Умарходжаев М. Умумбашарий тилми ёки атамалар унификациясими? Жн.: филология масалалари, Т., 2004, № 4
12. Умарходжаев М.Э. Еропадаги hozirgi lingvistik йўналишлар (Лейпциг таржимашунослик мактаби) Германистика ва раманистиканинг Ўзбекистонда таракқиёти ҳамда келажаги. БДУ, Илмий-амалий конференцияси, Бухоро 2008.
13. Умархужаев М.Э. Қиёсий фразеология масалалари. Проф. СамДУ, Самарқанд, 2006
14. Умархужаев М.Э. Умумий тилшунослик. Ўқув қўлланма, Андижон, 2010
15. Умархужаев М.Э. Хозирги замон таржимашунослигининг баъзи масалалари. УМУ, илмий амалий конференция материаллари, АДТПИ, 2008.
16. Умархужаев М.Э. ва бошқ. Таржима халқаро алова ва чет тили ўқитиш воситаси сифатида. Таржима ва таржимашуносликнинг долзарб масалалари. Ҳозирги замон таржимашунослигининг долзарб масалалари. Республика илмий амалий конференцияси материаллари. АДТПИ, 2008
17. Умархужаев М.Э., и.др. Современные проблемы трнаслатологии. Таржима ва таржимашуносликнинг долзарб масалалари. Хозирги замон таржимашунослигининг долзарб масалалари. Республика илмий амалий конференцияси материаллари. АДТПИ 2008
18. Умархужаев М.Э. Чогиштира тилшуносликнинг баъзи муаммолари. Таржима ва таржимашуносликнинг долзарб масалалари. Хозирги замон таржимашунослигининг долзарб масалалари. Республика илмий амалий конференцияси материаллари. АДТПИ, 2008
19. O'zbekiston Respublikasi maxsus oliy o'quv yurtlari uchun roman-german filologiyasi mutaxassisligi bo'yicha o'quv dasturlari. Toshkent, 1997
20. Umarxo'jaev, M.E. Nazarov K.N. Nemischa-o'zbekcha-ruscha frazeologik Lug'at T, 1996

Qo'shimcha adabiyotlar:

21. Barz I. Wortbildung – praktisch und integrative. Leipzig, 2004.
22. Bekmann F., Heyer G. Theorie und Praxis des Lexikons. Berlin, New York, 1993.
23. Burger H. Phraseologie. Eine Einfuhrung am Beispiel des Deutschen. Berlin, 2003.

24. Burger H., Dobrowolskij D., Kuhn P., Norrick N. Phraseologie. Berlin, 2007
25. Grimm Hans-Jurgen. Rezension zum "Gegenwort – Wörterbuch. Ein Kontrastwörterbuch mit Gebrauchshinweisen" von Wolfgang Müller. Verlag Walter de Gruyter, Berlin/New York, 1998.
26. Степанова М.Д., Чернышева И.И. Лексикология современного немецкого языка. М., 1962.
27. Tursunov U., Muxtorov Sh., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 1965, 8 bet.
28. Умарходжаев М.И. К проблеме фразеологии. В.жн.: Fremdsprachen, Leipzig, 1971, № 4.
29. Умарходжаев М.Э. Проблема типологии и вопросы фразеологии // Материалы всесоюзного семинара по вопросам преподавания новых дисциплин, Ташкент, 1973.
30. Умарходжаев М.И. Принципы составления многоязычного фразеологического словаря. Автореф. канд.дисс. М., 1972.
31. Умарходжаев М.И. Принципы установления межъязыковых эквивалентов при составлении фразеологического словаря. В жн: Fremdsprachen, Leipzig, 1974, Helt 4.
32. Умарходжаев М.И. Принципы установления межъязыковых соответствий при составлении фразеологического словаря в условиях отсутствия прямого контакта языков. М., 1975, Всесоюзная научная конференция по теории перевода и научным основам подготовки переводчиков.
33. Умарходжаев М.И. Рецензия на «Немецко-русский фразеологический словарь». Составители Л.Э.бинович и Н.Н.Гришин, под ред. д-ра Х-Малиге Клаппенбах и К.Агрикола. Издание второе исправлено и дополненное, изд-во «Русский язык», М., 1975. В жн.: Fremdsprachen, Leipzig, 1976, Helt , S.62-65.
34. Умарходжаев М.И. Очерки по современной фразеографии. Фан,Т., 1977
35. Умарходжаев М.И. К вопросу об учебной фразеографии. В жн.: Fremdsprachen. Leipzig, 1979, № 2
36. Умарходжаев М.И. Основы фразеографии. Т., 1983
37. Умарходжаев М.И. Современные проблемы фразеографии.: ВЯ М., 1979
38. Умарходжаев М.Э. Основы фразеографии. Автореф. Докт. Дисс. М., 1981
39. Умархужаев М.И. Центр и периферия во фразеологии. Известия АН. Серия Литература и языка. Т.39, Москва, 1980
40. Успенский Б.А. Отношения подсистем в языке и связанные с ними универсалии. ВЯ, 1968, № 6, с.3.
41. А.П.Хазанович. Синонимия во фразеологии современного немецкого языка. Канд.дисс.М., 1958.
42. Чернышѐва И.И. Явление синонимии и полисемии во фразеологии немецкого языка. ИЯШ., 1960 №6
43. Шоабдурахмонов Ш. Ва б. Хозирги узбек адабий тили. Т., 1980, 145 б.
44. Л.В.Щерба. Языковая я система и речевая деятельность. Ленинград, 1971, с.312.
45. O'zbek tili grammatikasi II tom T., Fan, 1976
46. Germanistisches Jahrbuch 1998.GUS.Das Wort.Reihe Germanistik, DAAD
47. Germanistisches Jahrbuch 1999. GUS Das Wort. Reihe Germanistik, DAAD
48. Chemođanov. N.S Xrestomatiya po istorii nemetskogo yazika M, 1978
49. Юнг. V.грамматика немецкого языка, М. Санкт-петербург, 1996
50. Behagel. O.Die deutsche Sprache, Халле, 1958
51. Kűgler. K.Zur Geschichte der deutschen Sprache. Берлин, 1989

52. Schmidt W.. Deutsche Sprachkunde. Wort und Wissen, 1987
53. Funk, H. König. M.Grammatik lehren und lernen. Langenscheidt, 1997
54. Шендельс. Е.И Практическая грамматика немецкого языка Москва-1988

Internet manbalari

1. www.wikipedia.de
2. www.zum.de
3. www.kinas.de
4. www.daf.de